$z := 0.3750000000000000$

> **X0:=X;** $X0 := \begin{bmatrix} 0.87500000000000000 \\ 0.50000000000000000 \\ 0.37500000000000000 \end{bmatrix}$

> **F0;** $\begin{bmatrix} 0.1562 \\ 0.2812 \\ 0.43752 \end{bmatrix}$

> **W0:=W;** $W0 := \begin{bmatrix} 1.7500 & 1.0000 & 0.75000 \\ 3.5000 & 1.0000 & -4 \\ 5.2500 & -4 & 0.75000 \end{bmatrix}$

> **W0^(–
1);**

$$\begin{bmatrix} 0.23552000000000008 & 0.05791500000000012 & 0.07335899999999937 \\ 0.36486000000000018 & 0.04054100000000008 & -.14865000000000004 \\ 0.29730000000000008 & -.18918999999999996 & 0.02702699999999989 \end{bmatrix}$$

> **X:=X0–W0^(–1).F0;** $X := \begin{bmatrix} 0.7898300000000003 \\ 0.4966459999999997 \\ 0.3699370000000001 \end{bmatrix}$

3 – yaqinlashish :

> **x:=X[1];y:=X[2];z:=X[3];**

$$x := 0.7898300000000003$$
$$y := 0.4966459999999997$$
$$z := 0.3699370000000001$$

> **X0:=X;** $X0 := \begin{bmatrix} 0.7898300000000003 \\ 0.4966459999999997 \\ 0.3699370000000001 \end{bmatrix}$

> **F0;** $\begin{bmatrix} 0.0074 \\ 0.0146 \\ 0.02176 \end{bmatrix}$

> **W0:=W;** $W0 := \begin{bmatrix} 1.5797 & 0.99330 & 0.73988 \\ 3.1593 & 0.99330 & -4 \\ 4.7390 & -4 & 0.73988 \end{bmatrix}$

> **W0^(–1);**

$$\begin{bmatrix} 0.2627475336918785 87 & 0.06358996568789503 10 & 0.08103775953348230 09 \\ 0.36651078108520457 4 & 0.04023386910415290 01 & -.14899513474172779 2 \\ 0.29853836051117144 0 & -.18978397980526953 6 & 0.02700643158879309 50 \end{bmatrix}$$

> **X:=X0–W0^(–1).F0;**

$$X := \begin{bmatrix} 0.7851938000000005 \\ 0.4965885999999999 \\ 0.3699109500000001 \end{bmatrix}$$

2)*Chiziqsiz tenglamalar sistemasining yuqorida topilgan yechimini to'g'ridan–to'g'ri hisoblash:*

> solve({x^2+y^2+z^2=1,2*x^2+y^2–4*z=0,3*x^2–4*y+ z^2=0},[x,y,z]);

$$x = \mathrm{RootOf}\big(2\_Z^2\,\mathrm{K}\ 4\,\mathrm{RootOf}(\mathrm{K}\ 23\,\mathrm{C}\ 36\_Z^2\,\mathrm{C}\ 4\_Z^4\,\mathrm{C}\ 24\_Z\ \mathrm{C}\ 16\_Z^3)\,\mathrm{K}\ \mathrm{RootOf}(\mathrm{K}\ 23\,\mathrm{C}\ 36\_Z^2\,\mathrm{C}\ 4\_Z^4\,\mathrm{C}\ 24\_Z\,\mathrm{C}\ 16\_Z^3)^2\,\mathrm{C}\ 1\big),\ y = \mathrm{RootOf}(\mathrm{K}\ 23\,\mathrm{C}\ 36\_Z^2\,\mathrm{C}\ 4\_Z^4\,\mathrm{C}\ 24\_Z\ \mathrm{C}\ 16\_Z^3),\ z = \frac{1}{2}\,\mathrm{RootOf}(\mathrm{K}\ 23\,\mathrm{C}\ 36\_Z^2\,\mathrm{C}\ 4\_Z^4\,\mathrm{C}\ 24\_Z\,\mathrm{C}\ 16\_Z^3)^2\,\mathrm{K}\ \frac{1}{4}\ \mathrm{C}\ \mathrm{RootOf}(\mathrm{K}\ 23\,\mathrm{C}\ 36\_Z^2\,\mathrm{C}\ 4\_Z^4\,\mathrm{C}\ 24\_Z\,\mathrm{C}\ 16\_Z^3)$$

> evalf(%,5); $\{y = 0.49664,\ x = 0.78520,\ z = 0.36992\}$

chiziqsiz tenglamalar sistemasidagi sfera va paraboloidlarining kesishishini aniqlash grafigini qurish:

> with(plots):

implicitplot3d([x^2+y^2+z^2=1, 2*x^2+y^2–4*z=0, 3*x^2–4*y+z^2=0], x=–2..2, y=–2..2,z=–2..2, color=[blue,green,yellow]); (2.10–rasm)



2.10–rasm.

2.5.2. Ketma-ket yaqinlashish (iteratsiya) usuli

1. Chiziqsiz tenglamalardan tuzilgan

$$\begin{cases} F(x,y) = 0 \\ G(x,y) = 0 \end{cases} \qquad (2.16)$$

sistema berilgan bo‘lsin.

Bu sistema yechimini o‘z ichiga oluvchi sohani topamiz:

$$D = \{a \le x \le b, c \le x \le d\}$$

(2.16) ga tengkuchli bo‘lgan quyidagi sistemani tuzamiz:

$$\begin{cases} x = \varphi_1(x,y) \\ y = \varphi_2(x,y) \end{cases} \qquad (2.17)$$

Teorema. D sohada

1) $\varphi_1(x,y)$, $\varphi_2(x,y)$ funksiyalar aniqlangan va uzluksiz xususiy hosilalarga ega;

2) boshlang‘ich (x_0, y_0) nuqta D sohaga tegishli;

3) D sohada $\left|\frac{\partial\varphi_1}{\partial x}\right| + \left|\frac{\partial\varphi 2}{\partial x}\right| \le q_1 < 1$, $\left|\frac{\partial\varphi_1}{\partial y}\right| + \left|\frac{\partial\varphi_2}{\partial y}\right| \le q_2 < 1$

tengsizliklar o‘rinli bo‘lsa, u holda

$x_n = \varphi_1(x_{n-1}, y_{n-1})$

$y_n = \varphi_2(x_{n-1}, y_{n-1})$, $(n=1,2,3,\ \ldots)$ (2.18)

formulalar yordamida tuzilgan $\{(x_n; y_n)\}$ nuqtalar ketma-ketligining barcha hadlari D sohada yotadi va u (2.17) sistema-ning yechimi bo‘lgan (ξ, η) nuqtaga yaqinlashadi.

2.7–masala. Chiziqsiz tenglamalar sistemasi yechimini

$$\begin{cases} \sin(x - 0.6) - y = 1.6, \\ 3x - \cos y = 0.9. \end{cases} \qquad (2.19)$$

=0.01 aniqlikda ketma–ket yaqinlashish (iteratsiya) usulida topamiz.

Yechish. 1) Sistema funksiyalarining grafiklarining bitta kesishgan nuqtasi (2.11–rasm) bo‘lib, bu sistema yechimini o‘z ichiga olgan sohani quyidagicha tanlaymiz:

$D=\{0 \quad x \quad 0.3,\ -2{,}2 \quad y \quad -1.8\}$



2.11–rasm.

Berilgan (2.19) sistemaga iteratsiya usulini qo'llash qulay bo'lishi uchun, un quyidagich ko'rinishga keltiramiz:

$$\begin{cases} x = \varphi_1(x,y) = \frac{1}{3}\cos y + 0.3, \\ y = \varphi_2(x,y) = \sin(x-0.6) - 1.6. \end{cases}$$

funksiyalar uchun teoremaning yaqinlashish shartlarini tekshiramiz:

$$\frac{\partial \varphi_1}{\partial x} = 0, \quad \frac{\partial \varphi_1}{\partial y} = -\sin(y)/3, \quad \frac{\partial \varphi_2}{\partial x} = \cos(x-0.6), \quad \frac{\partial \varphi_2}{\partial y} = 0.$$

D sohada

$$\left|\frac{\partial \varphi_1}{\partial x}\right| + \left|\frac{\partial \varphi_2}{\partial x}\right| = \left|\cos(x-0.6)\right| \le \cos(0.3) = 0.2935 < 1,$$

$$\left|\frac{\partial \varphi_1}{\partial y}\right| + \left|\frac{\partial \varphi_2}{\partial y}\right| = \left|-\frac{1}{3}\sin(y)\right| \le \left|\frac{1}{3}\sin(-1.8)\right| < \frac{1}{3} < 1,$$

yaqinlashish shartlarini bajarilishini ko'ramiz.

Demak, boshlang'ich qiymatlarni x_0=0.15, y_0 = –2 deb qabul qilib,

$$\begin{cases} x_n = \varphi_1\left(x_{n-1}, y_{n-1}\right) = \cos\left(y_{n-1}\right)/3 + 0.3, \\ y_n = \varphi_2\left(x_{n-1}, y_{n-1}\right) = \sin\left(x_{n-1} - 0.6\right) - 1.6, \ n = 1,2,3,\ldots \end{cases}$$

ketma–ketlik bilan yechimga yaqinlashish qiymatlarini topish mumkin.

x_0=0.15, y_0=–2

x_1=0.1616, y_1=–2.035

x_2=0.1508, y_2=–2.0245

x_3=0.1538, y_3=–2.0342

$$\left|x_3 - x_2\right| = 0{,}003 < \varepsilon; \quad \left|y_3 - y_2\right| = 0{,}0097 < \varepsilon$$

Demak, ε=0.01 aniqlik bilan taqribiy yechim deb quyidagilarni olamiz:

$x \approx 0.15$, $y \approx -2.03$.

Maple dasturida 2.7–masalani yechish va tenglamalar sistemasidagi funksiyalarning grafigini qurish.

2.5.3–Maple dasturi:

```
> with(plots):
> solve({sin(x–0.6)–y=1.6,–cos(y)+3*x=0.9},{x,y});
```

$$[\,[x = 0.1510571926\ ,\ y = \mathrm{K}\ 2.034013345\ ]\,]$$

```
> implicitplot([sin(x–0.6)–y=1.6,–cos(y)+3*x=0.9],
x=–4..4,y=–4..4,color=[blue,red], thickness=2, legend=[plot1,plot2]);
```

(2.11a–rasm)



2.11a–rasm.

O'z–o'zini tekshirish uchun savollar

1. Chiziqsiz tenglamalar sistemasini Nyuton usulida yechishda xatolik.
2. Chiziqsiz tenglamalar sistemasini Nyuton usulida yechishda yaqinlashish sharti.
3. Chiziqsiz tenglamalar sistemasida iteratsiya qurish.
4. Nyuton usulini chiziqli sistema bo'lgan hol uchun qo'llash mumkinmi?

2.2–laboratoriya ishi bo'yicha mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

Quyidagi chiziqsiz tenglamalar sistemasining

1. Ildizlarining qisqa atrofini – grafik usulda aniqlang.
2. Aniqlangan kesmada yechimni Nyuton usuli yordamida hisoblang.

1. $\begin{cases} 0.6x^2 + 2y^2 = 1, \\ x^2 - 0.8y = 0. \end{cases}$ 2. $\begin{cases} x^2 + y^2 = 1, \\ y^2 - 0.5x = 0. \end{cases}$ 3. $\begin{cases} x^2 + 2y^2 = 1, \\ 0.6x^2 + y = 0. \end{cases}$

4. $\begin{cases} 0.7x^2 + 2y^2 = 1, \\ x^2 + y = 0. \end{cases}$ 5. $\begin{cases} x^2 + y^2 = 2 \\ y - \ln x = 0 \end{cases}$ 6. $\begin{cases} 0.8x^2 + 2y^2 = 1 \\ tgy = x^2 \end{cases}$

7. $\begin{cases} 0.9x^2 + 2y^2 = 1 \\ y^2 - x^2 = 1 \end{cases}$ 8. $\begin{cases} x^2 + y^2 = 1 \\ 2y + 0.5x^2 = 0 \end{cases}$ 9. $\begin{cases} x^2 + 0.5y^2 = 1 \\ y = 2^x \end{cases}$

10. $\begin{cases} x^2 + y^2 = 3 \\ xy = 0.8 \end{cases}$ 11. $\begin{cases} x^2 + 0.2y^2 = 3 \\ y^2 = x^3 \end{cases}$ 12. $\begin{cases} x^2 + y^2 = 1 \\ x^2 - 0.8y^2 = 1 \end{cases}$

13. $\begin{cases} x^2 - y^2 = 1 \\ x^2 + 3y^2 = 6 \end{cases}$ 14. $\begin{cases} 6x^2 + 0.3y^2 = 8 \\ 3x + y^2 = 3 \end{cases}$ 15. $\begin{cases} x^2 + y^2 = 1 \\ 0.5x^2 + 2y^2 = 1 \end{cases}$

16. $\begin{cases} x^2 + 3y^2 = 6 \\ y = 3^x \end{cases}$ 17. $\begin{cases} x^2 + y^2 = 3 \\ 0.5x^2 + 2y^2 = 1 \end{cases}$ 18. $\begin{cases} 0.5x^2 + 3y^2 = 3 \\ y = 0.3^x \end{cases}$

19. $\begin{cases} x^2 - y^2 = 1 \\ 0.8x^2 + 2y^2 = 1 \end{cases}$ 20. $\begin{cases} 2x^2 + 3y^2 = 1 \\ y = 5^x \end{cases}$ 21. $\begin{cases} 2x^2 + y^2 = 1 \\ y = 2^x \end{cases}$

22. $\begin{cases} x^2 + y^2 = 1, \; x > 0, \; y > 0 \\ \sin(x + y) - 1.6x = 0 \end{cases}$ 23. $\begin{cases} x^2 + y^2 = 1, \\ \cos(x + y) - 1.2x = 0.2 \end{cases}$

24. $\begin{cases} x^2 + 2y^2 = 1, \\ tg(xy + 0.1) = x^2 \end{cases}$

25. $\begin{cases} 0{,}9x^2 + 2y^2 = 1, \\ tgxy = x^2 \end{cases}$ 27. $\begin{cases} 0{,}9x^2 + 2y^2 = 3, \\ \sin(xy) = x^2 \end{cases}$

28. $\begin{cases} 0.9x^2 + 2y^2 = 2, \\ \cos(xy) = x^2. \end{cases}$

3–LABORATORIYA ISHI

Interpolyatsiyalash formulalari

Maple dasturining buyruqlari:

with(CurveFitting)– *egrichiziqlarni moslashtirish amallarini chaqirish;*

PolynomialInterpolation([2,3,4.5],[0.6,1.09,1.3,1.6], x,form=Lagrange)– *jadvallarga mos Lagranj interpolyatsiya ko'phadini topish.*

PolynomialInterpolation([2,3,4,5],[0.6,1.09,1.3,1.6], x,form=Newton)– *jadvallarga mos Nyuton interpolyatsiya ko'phadini topish.*

Maqsad: Tajriba natijalarida topilgan qiymatlarning o'zgaruvchilari orasidagi bog'lanishni Lagranj interpolyatsiya ko'phadi yordamida topishni o'rganish.

Reja:

3.1. Interpolyatsiya masalasini qo'yilishi.

3.2. Lagranjning interpolyatsiya ko'phadini topish.

3.3. Nyuton interpolyatsiya ko'phadini topish.

3.1. Interpolyatsiya masalasini qo'yilishi

Agar $y=f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmaning x_k, k=0,1,2,.., n nuqtalarda $f(x_k)=y_k$ qiymatlarga ega bo'lsa, quyidagi jadvalni tuzish mumkin:

x	x_0	x_1	x_2	...	x_n
y	y_0	y_1	y_2	...	y_n

Bu jadvalni asosida berigan funksiyani ko'phadini quyidagi ko'rinishda

$$P_n(x)=a_0x^n+a_1x^{n-1}+a_2x^{n-2}+...+a_{n-1}x+a_n \quad (3.1)$$

topish uchun quyidagicha shart qo'yamiz: jadvalning har bir x_k, (k=0,1,2,...,n) nuqtasida

$$P_n(x_k)\approx f(x_k)=y_k \quad (3.2)$$

munosabat urinla bo'lsin. Bunday masala *interpolyatsiyalash* deyiladi.

Topilgan ko'phadini *interpolyatsiya* ko'phadi deyiladi. Topilgan interpolyatsiya ko'phadi asosida biror $[x_k, x_{k+1}]$ oraliqqa tegishli x ning taqribiy qiymatini topish masalasini ham yechamiz.

Ikkinchi tartibli

$$P_2(x)=a_0x^2+a_1x+a_2 \quad (3.3)$$

bu ko'phadining koeffitsentlarini

$$P_2(x_i)=y_i,\ i=0,1,2 \quad (3.4)$$

shart saosida topish masalasini qo'yamiz.

Haqiqatan ham $x=x_0$, $x=x_1$, $x=x_2$ larda (3.4) shart va (3.3) ko'phad asosida quyidagi sistemani tuzamiz:

$$\begin{cases} a_0x_0^2 + a_1x_0 + a_2 = y_0 \\ a_0x_1^2 + a_1x_1 + a_2 = y_1 \\ a_0x_2^2 + a_1x_2 + a_2 = y_2 \end{cases}$$

Bu sistemadagi koeffitsentlari dan tuzilgan determinant

$$\Delta = \begin{vmatrix} x_0^2 & x_0 & 1 \\ x_1^2 & x_1 & 1 \\ x_2^2 & x_2 & 1 \end{vmatrix} = (x_1 - x_0)(x_2 - x_0)(x_3 - x_0) \neq 0$$

bo'lganda a_0, a_1, a_2 noma'lumlarni topish mumkin. Lekin (3.1) yuqori tartibli ko'phadilarni topishda tuziladigan sistemalarni yechish qiyinlashadi. Bu masalani yechish uchun jadval asosida ko'phadni topishda Lagranj ko'phadidan foydalanamiz.

3.2. Lagranjning interpolyatsiya ko'phadini topish

Yuqoridagi jadval asosida topiladigan ko'phadini quyidagicha tanlaymiz:

$$\begin{aligned} P_n(x) = a_0(x - x_1)(x - x_2)(x - x_3)\ldots(x - x_n) + \\ + a_1(x - x_0)(x - x_2)(x - x_3)\ldots(x - x_n) + \\ + \ldots + a_n(x - x_1)(x - x_2)(x - x_3)\ldots(x - x_{n-1}) \end{aligned} \quad (3.6)$$

bunda n=2 uchun ikkinchi darajali ko'phadini topamiz:

$$P_2(x) = a_0(x - x_1)(x - x_2) + a_1(x - x_0)(x - x_2) + a_2(x - x_0)(x - x_1) \quad (3.7)$$

Bu a_0, a_1, a_2 koeffitsentlarini topish uchun (3.4) shartga asosan:

$$P_2(x_0)=y_0,\ P_2(x_1)=y_1,\ P_2(x_2)=y_2$$

Bo 'lganda, x_0, x_1, x_2 larni (3.7) ga ketma–ket qo 'yib quyidagi sistemani topamiz:

$$a_0(x_0-x_1)\ (x_0-x_2)=y_0$$
$$a_1(x_1-x_0)\ (x_1-x_2)=y_1$$
$$a_2(x_2-x_0)\ (x_2-x_1)=y_2$$

bundan: $a_0 = y_0/(x_0-x_1)\ (x_0-x_2)$,

$a_1 = y_1/(x_1-x_0)\ (x_1-x_2)$,

$a_2 = y_2/(x_2-x_0)\ (x_2-x_1)$.

Endi bu topilgan a_0, a_1, a_2 larni (3,7) ga qo'yib izlanayotgan Lagranjning 2–darajali interpolyatsiya ko'phadini yozamiz:

$$P_2(x) = y_0\frac{(x - x_1)(x - x_2)}{(x_0 - x_1)(x_0 - x_2)} + y_1\frac{(x - x_0)(x - x_2)}{(x_1 - x_0)(x_1 - x_2)} + y_2\frac{(x - x_0)(x - x_1)}{(x_2 - x_0)(x_2 - x_1)}$$

Shuningdek n=3 bo'lganda:

$$P_3(x)=y_0\frac{(x-x_1)(x-x_2)(x-x_3)}{(x_0-x_1)(x_0-x_2)(x_0-x_3)}+y_1\frac{(x-x_0)(x-x_2)(x-x_3)}{(x_1-x_0)(x_1-x_2)(x_1-x_3)}+$$
$$+y_2\frac{(x-x_0)(x-x_1)(x-x_3)}{(x_2-x_0)(x_2-x_1)(x_2-x_3)}+y_3\frac{(x-x_0)(x-x_1)(x-x_2)}{(x_3-x_0)(x_3-x_1)(x_3-x_2)}.$$

Bu ko'phadlardan ko'ramizki ko'phadning darajasi jadvalda berilgan qiymatlar sonidan bitta kam bo'lar ekan.

Demak, Lagranj interpolyatsiya ko'phadini umumiy holda quyidagicha yozamiz:

$$P_n(x)=\sum_{j=0}^{n} y_j \prod_{i\neq j}\frac{(x-x_i)}{(x_j-x_i)}. \quad (3.8)$$

Lagranj interpolyatsiya ko'phadi yordamida $y=f(x)$ funksiyaning qiymatini $[a,b]$ kesmada quyidagicha baholanadi:

$$|R_n(x)|\leq\frac{f^{(n+1)}(\xi)}{(n+1)!}\left|(x-x_0)(x-x_1)\cdots(x-x_n)\right|,\quad a<\xi<b \quad (3.9)$$

3.1–masala. Quyidagi, $y=ln\,x$ funksiya asosida tuzilgan

x	2	3	4	5
y	0.6931	1.0986	1.3863	1.6094

Jadvaldan foydalanib Lagranj interpolyatsiya ko'phadini toping va bu ko'phadilar yordamida ln 3.5 ni hisoblang.

Yechish.

$$L_3(x)=\frac{(x-3)(x-4)(x-5)}{(2-3)(2-4)(1-5)}0.6981+\frac{(x-2)(x-4)(x-5)}{(3-2)(3-4)(3-5)}1.0986+$$
$$+\frac{(x-2)(x-3)(x-5)}{(4-2)(4-3)(4-5)}1.3865+\frac{(x-2)(x-3)(x-4)}{(5-2)(5-3)(5-4)}1.6094=$$
$$=0.0089\,x^3-0.1387x^2+0.9305\,x-0.6841$$

Hosil bo'lgan ko'phadga asosan

$$\ln3{,}5\approx L(3{,}5)=0.0089\cdot(3.5)^3-0.1387\cdot(3{,}5)^2+0.9805\cdot(3.5)-0.684=$$
$$=0.31-1.701+3.2567-0.6841=1.25145$$

bo'ladi.

Topilgan interpolyatsiya polinomining qiymatini baholaymiz.

Polinom darajasi $n=3$ bo 'lganligi uchun (3.9) formulaga asosan:

$$f^{(IV)}(x)=-\frac{6}{x^4},\quad f^{(IV)}(3.5)=-\frac{6}{(3.5)^4}=-0.03998334028$$

$$\left|R_3(3.5)\right| \le \left|\frac{f^{(IV)}(3.5)}{4}(3.5-2)(3.5-3)(3.5-4)(3.5-5)\right| =$$

$$= \left|-\frac{6}{(3.5)^4\,4!}\cdot 0.5625\right| = 0.005512409046$$

Haqiqtan ham hatolik 0.005512409046 dan katta bo'lmaydi:

$$ln(3.5) - L(3,5) = 1.252762968 - 1.251450000 = 0.004312968$$

Lagranj interpolyatsiya ko'phadini aniqlash va grafigini qurish hamda uining $x=3.5$ bo'lgandagi qiymatni hisoblashning Maple dasturini tuzamiz.

3.1 – Maple dasturi

Jadvalga asosan ko'phadni topish:

1)> with(CurveFitting):

> PolynomialInterpolation([2,3,4,5], [0.6931,1.0986,1.3865,1.6094], x, form=Lagrange);

$$-0.1155166667\,(x-3)\,(x-4)\,(x-5) + 0.5493000000\,(x-2)\,(x-4)\,(x-5) - 0.6932500000\,(x-2)\,(x-3)\,(x-5) + 0.2682333333\,(x-2)\,(x-3)\,(x-4)$$

> evalf(%,3);

$$-0.116\,(x-3.)\,(x-4.)\,(x-5.) + 0.549\,(x-2.)\,(x-4.)\,(x-5.) - 0.693\,(x-2.)\,(x-3.)\,(x-5.) + 0.268\,(x-2.)\,(x-3.)\,(x-4.)$$

2)> with(CurveFitting):

> PolynomialInterpolation([[2,0.6931],[3,1.0986], [4,1.3865],[5,1.6094]],x);

$$0.008766666667\,x^3 - 0.1377000000\,x^2 + 0.9274333334\,x - 0.681100000$$

> p:=evalf(%,3); $p := 0.00877x^3 - 0.138x^2 + 0.927x - 0.681$

> x:=3.4:p:=p; $p := 1.220216$

To'g'ridan–to'g'ri jadvalga asosan ko'phadning x=3.5 dagi qiymatini hisoblash:

> p:=PolynomialInterpolation([2,3,4,5],[0.6971, 1.0986,1.3863,1.6094],3.5,form=Lagrange);

$$p := 1.25360000$$

Jadvalga asosan topilgan ko'phadni grafigini qurish

> with(stats):with(plots):

> plot([p,[[2,0.6931],[3,1.0986],[4,1.3863], [5,1.6094]]], x=-1..6,-1..2,style=[line,point], color=[blue,red],symbol=BOX, symbolsize=30, thickness=3);



3.1–rasm.

3.3. Nyuton interpolyatsiya ko'phadini topish

Maqsad: Tajriba natijalarida topilgan qiymatlarning o'zgaruvchilari orasidagi bog'lanishni Nyuton interpolyatsiya ko'phadi yordamida topishni o'rganish.

Reja:

3.2.1. Chekli ayirmalar masalasini qo'yilishi.

3.2.2. Nyuton interpolyatsiya ko'phadini topish.

3.3.1. Chekli ayirmalar masalasini qo'yilishi

Berilgan jadvaldagi x_i, i=0,1,2,...,n nuqtalar bir xil h uzoqlikda bo'lsa, ularga mos $y_i=f(x_i)$ i=0,1,2,...,n lar asosida quyidagi ayirmalarni tuzamiz:

$y_1-y_0=f(x_1)-f(x_0)$

$y_2-y_1=f(x_2)-f(x_1)$

... ...

$y_n-y_{n-1}=f(x_n)-f(x_{n-1})$

Bu ayirmalarni *birinchi tartibli chekli ayirmalar* deb ataladi. Ikkinch, uchinchi va undan yuqori tartibli chekli ayirmalarni quyidagich topamiz:

1– tartibli2– tartibli

$\Delta y_0=y_1-y_0 \Delta^2 y_0=\Delta y_1-\Delta y_0$

$\Delta y_2=y_2-y_1 \Delta^2 y_1=\Delta y_2-\Delta y_1$

... ...

$\Delta y_k=y_{k+1}-y_k \quad \Delta^2 y_k=\Delta y_{k+1}-\Delta y_k$

... ...

$\Delta y_{n-1}=y_n-y_{n-1} \, \Delta^2 y_{n-1}=\Delta y_n-\Delta y_{n-1}$

3 – tartibli: $\Delta^3 y_0=\Delta^2 y_1-\Delta^2 y_0$, $\Delta^3 y_1=\Delta^2 y_2-\Delta^2 y_1$, ...

p – tartibli:$\Delta^p y_k=\Delta^{p-1} y_{k+1}-\Delta^p y_k$, k=1,2,...,n

Bu topilgan ayirmalarni quyidagi jadvalga joylashtiramiz:

x	y	Δy	$\Delta^2 y$	$\Delta^3 y$	$\Delta^4 y$	$\Delta^5 y$

x_0	y_0	Δy_0	$\Delta^2 y_0$	$\Delta^3 y_0$	$\Delta^4 y_0$	$\Delta^5 y_0$
$x_1 = x_0 + h$	y_1	Δy_1	$\Delta^2 y_1$	$\Delta^3 y_1$	$\Delta^4 y_1$	
$x_2 = x_0 + 2h$	y_2	Δy_2	$\Delta^2 y_2$	$\Delta^3 y_2$		
$x_3 = x_0 + 3h$	y_3	Δy_3	$\Delta^2 y_3$			
$x_4 = x_0 + 4h$	y_4	Δy_4				
$x_5 = x_0 + 5h$	y_5					
... ...	...					

3.3.2. Nyuton interpolyatsiyalash formulasi

1. Berilgan jadvalda mos $y_i = f(x_i)$, $i=0,1,2,...,n$ larga mos x_i, $i=0,1,2,...,n$ nuqtalar bir xil h uzoqlikda bo‘lganda, bu qiymatlar bog‘lanishini ifodalovchi interpolyatsiya ko‘phadini quyidagicha topamiz.

Bu ko‘phadini quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$P_n(x) = A_0 + A_1(x-x_0) + A_2(x-x_0)(x-x_1) + A_3(x-x_0)(x-x_1)(x-x_2) + \qquad (13.1)$$
$$+ ... + A_n(x-x_0)(x-x_1)(x-x_2)...(x-x_{n-1})$$

bu yerdagi A_i, $i=1,2,..n$ koeffitsentlarni topish uchun jadvaldagi mos x va y larning qiymatlarini izlanayotgan ko‘phadiga qo‘yamiz.

$x=x_0$ da: $y_0 = A_0$;

$A_0 = y_0$

$x=x_1$ da: $y_1 = A_0 + A_1(x_1 - x_0) = A_0 + A_1 h = y_0 + A_1 h$,

$y_1 = y_0 + A_1 h$; $A_1 = (y_1 - y_0)/h$,

$$A_1 = \frac{y_1 - y_0}{1!h} = \frac{\Delta y_0}{1!h}$$

$x=x_2$ da: $y_2 = A_0 + A_1(x_2 - x_0) + A_2(x_2 - x_0)(x_2 - x_1)$

$y_2 = A_0 + A_1 2h + A_2\, 2h\, h$

A_0 va A_1 larning qiymatlarini hisobga olib,

$$y_2 = y_0 + \Delta y\, 2h/h + A_2\, 2h^2 ,$$

$$A_2\, 2h^2 = y_2 - y_0 - 2\Delta y = \Delta y_1 - \Delta y_0 = \Delta^2 y_0 ,$$

$$A_2 = \frac{\Delta^2 y_0}{2!h^2}$$

Demak, ketma–ket koeffitsentlarni topish formulasi:

$$A_0 = y_0, \quad A_1 = \frac{\Delta y_0}{1!h} ,$$

$$A_2 = \frac{\Delta^2 y_0}{2!h^2}, \quad A_3 = \frac{\Delta^3 y_0}{3!h^3}, \quad ..., \quad A_k = \frac{\Delta^k y_0}{k!h^k}, \quad ...$$

Topilgan koeffitsentlar asosida izlanayotgan interpolyatsiya ko‘phadini quyidagicha topamiz:

$$P_n(x)=y_0+\frac{\Delta y_0}{1!h}(x-x_0)+\frac{\Delta^2 y_0}{2!h^2}(x-x_0)(x-x_1)+\frac{\Delta^3 y_0}{3!h^3}(x-x_0)(x-x_1)(x-x_2)+,\dots \quad (13.2)$$

Bu Nyutonning *birinchi interpolyatsiya ko‘phadi* deyiladi.

2. Nyutonning birinchi interpolyatsiya ko‘phadida quyidagicha almashtirish qilamiz:

$$\frac{x-x_0}{h}=t,$$

$$\frac{x-x_1}{h}=\frac{x-(x_0+h)}{h}=\frac{x-x_0}{h}-1=t-1,$$

$$\frac{x-x_2}{h}=\frac{x-(x_0+2h)}{h}=\frac{x-x_0}{h}-2=t-2$$

va hakazo

$$\frac{x-x_k}{h}=t-k$$

Bu almashtirishlarni hisobga olib (13.2) formulani quyidagicha yozamiz:

$$P_n(x)=P_n(x_0+ht)=y_0+\frac{\Delta y_0}{1!}t+\frac{\Delta^2 y_0}{2!}t(t-1)+\dots+\frac{\Delta^n y_0}{n!}t(t-1)(t-2)\dots[t-(n-1)] \quad (13.3)$$

Bu Nyutoning 2– *interpolyatsiya ko‘phadi* deyiladi.

3.2–masala. Quyidagi, $y=\ln x$ funksiya asosida tuzilgan

x	2	3	4	5
y	0.6931	1.0986	1.3863	1.6094

jadvaldan foydalanib Nyuton interpolyatsiya ko‘phadilarini toping va bu ko‘phadilar yordamida ln 3.5 ni hisoblang.

Nyutonning interpolyatsiya ko‘phadini tuzish uchun chekli ayrimalarning jadvalini tuzamiz:

x	y	Δy	$\Delta^2 y$	$\Delta^3 y$
2	0.6931	0.1055	–0.1178	0.053 2
3	1.0986	0.2877	–0.0646	
4	1.3863	0.2231		
5	1.6094			

(13.2) formulaga asosan , n=3, h=1 bo'lgada:

$$P_3(x) = y_0 + \frac{\Delta y_0}{h}(x-x_0) + \frac{\Delta^2 y_0}{2!h^2}(x-x_0)(x-x_1) + \frac{\Delta^3 y_0}{3!h^3}(x-x_0)(x-x_1)(x-x_2) =$$

$$= 0.6941 + 0.4055(x-2) - \frac{0.1178}{2}(x-2)(x-3) + \frac{0.0532}{6}(x-2)(x-3)(x-4) =$$

$$= -0.6841 - 0.930\,x - \frac{0.1178}{2}(x-2)(x-3) + \frac{0.0532}{6}(x-2)(x-3)(x-4) =$$

$$= -0.6841 - 0.930\,x - 0.1387x^2 + 0.0089x^3$$

Bu ko'phadidan foydalanib ln3,5≈P_3(3.5)=1.2552 ekanligini hisoblab topamiz.

Nyuton interpolyatsiya ko'phadini aniqlash va grafigini qurish hamda uining x=3.5 bo'lgandagi qiymati hisoblashning Maple dasturini tuzamiz.

3.2 – Maple dasturi

Nyuton interpolyatsiya ko'phadini topish:

> restart; with(CurveFitting):

> PolynomialInterpolation([2,3,4,5], [0.6931,1.0986,1.3865,1.6094],x,form=Newton);

((0.008766666667 x − 0.09386666667) (x − 3) + 0.4055) (x − 2) + 0.6931

> p:=evalf(%,3);

p := ((0.00877x − 0.0939) (x − 3.) + 0.406) (x − 2.) + 0.693

> p:=simplify(p);

p := 0.008770000000 x^3 − 0.1377500000 x^2 + 0.9281200000 x − 0.6824000000

> p:=evalf(%,4); p := 0.008770x^3 − 0.1378x^2 + 0.9281x − 0.6824

> #x:=3.5:P[3.5]:=p; $P_{3.5}$:= 1.25391375(

Nyuton interpolyatsiya ko'phadining grafigini qurish:

> with(stats):with(plots):

> plot([p,[[2,0.6931],[3,1.0986],[4,1.3863], [5,1.6094]]], x=–1..6,–1..2,style=[line,point],color =[blue,red], thickness=3,symbol=BOX,symbolsize=30);



3.2–rasm.

O'z–o'zini tekshirish uchun savollar

1. Interpolyatsiya masalasini kuyilish moxiyatini tushintiring.
2. Lagranj interpolyatsiyalash ko'phadini tanlash qoidasi va uning ahamiyati.
3. Qanday xollarda Lagranj interpolyatsiyalash ko'phadini qo'llash mumkin.
4. Ikkinchi va uchunchi tartibli Lagranj ko'phadini yozing.
5. Chekli ayirmalar.
6. Nyuton interpolyatsiyalash ko'phadini tanlash qoidasi va uning ahamiyati.
7. Chekli ayirmalar asosida Nyuton interpolyatsiyalash ko'phadining koeffitsentlarini topish.
8. Ikkinchi va uchunchi tartibli Nyuton ko'phadini yozing.
9. Lagranj va Nyuton interpolyatsiyalash ko'phadini tanlash qoidalarining farqi
10. Sonli differentsiyalashda Nyuton interpolyatsiyalash formulasidan foydalanish.

3-laboratoriya ishi bo'yicha mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

Quyidagi jadval uchun:

1) Lagranj interpolyatsiya ko'phadini toping(1–jadval bo'yicha);
2) Nyuton interpolyatsiya ko'phadini toping(2–jadval bo'yicha).

Jadvalda berilgan (x_i, y_i) nuqtalar yordamida x qiymatlari teng uzoqlikda bo'lmagan 1–jadval uchun Lagranj, x qiymatlari teng uzoqlikda bo'lgan 2–jadval uchun Nyuton interpolyatsion ko'phadini tuzing.

Variant 1

1-jadval	X	0,43	0,48	0,55	0,62	0,70	0,75
	Y	1,63597	1,7323	1,8768	2,0334	2,2284	2,35973
2-jadval	X	1	7	13	19	25	
	Y	0,702	0,512	0,645	0,736	0,608	

Variant 2

Jadval 1	X	0,02	0,08	0,12	0,17	0,23	0,30
	Y	1,0231	1,0959	1,14725	1.2148	1,3012	1,4097
Jadval 2	X	2	8	14	20	26	
	Y	0,102	0,114	0,125	0,203	0,154	

Variant 3

Jadval 1	X	0,35	0,41	0,47	0,51	0,56	0,64
	Y	2,739	2,300	1,968	1,787	1,595	1,345
Jadval 2	X	3	9	15	21	27	
	Y	0,526	0,453	0,482	0,552	0,436	

Variant 4

Jadval 1 X	0,41	0,46	0,52	0,60	0,65	0,72
Y	2,574	2,325	2,093	1,862	1,749	1,620
Jadval 2 X	4	10	16	22	28	
Y	0,616	0, 478	0,665	0,537	0,673	

Variant 5

Jadval 1 X	0,68	0,73	0,80	0,88	0,93	0,99
Y	0,808	0,894	1,029	1,209	1,340	1,523
Jadval 2 X	5	11	17	23	29	
Y	0.896	0,812	0,774	0,955	0,715	

Variant 6

Jadval 1 X	0,11	0,15	0,21	0,29	0,35	0,40
Y	9,054	6,616	4,691	3,351	2,739	2,365
Jadval 2 X	6	12	18	24	30	
Y	0,314	0,235	0,332	0,275	0,186	

Variant 7

Jadval 1 X	1,375	1,380	1,385	1,390	1,395	1,400
Y	5,041	5,177	5,320	5,470	5,629	5,797
Jadval 2 X	1	7	13	19	25	

Y	1,3832	1,3926	1,3862	1,3934	1,3866

Variant 8

Jadval 1 X	0,115	0,120	0,125	0,130	0,135	0,140
Y	8,657	8,293	7,958	7,648	7,362	7,096
Jadval 2 X	2	8	14	20	16	
Y	0,1264	0,1315	0,1232	0,1334	0,1285	

Variant 9

Jadval 1 X	0,150	0,155	0,160	0,165	0,170	0,175
Y	6,616	6,399	6,196	6,005	5,825	5,655
Jadval 2 X	3	9	15	21	27	
Y	0,1521	0,1611	0,1662	0,1542	0,1625	

Variant 10

Jadval 1 X	0,180	0,185	0,190	0,195	0,200	0,205
Y	5,615	5,466	5,326	5,193	5,066	4,946
Jadval 2 X	4	10	16	22	28	
Y	0,183 8	0,187 5	0,194 4	0,197 6	0,203 8	

Variant 11

Jadval 1 X	0,210	0,215	0,220	0,225	0,230	0,235
Y	4,831	4,722	4,618	4,519	4,424	4,333
Jadval 2 X	5	11	17	23	29	
Y	0,2121	0,2165	0,2232	0,2263	0,2244	

Variant 12

Jadval 1 X	1,415	1,420	1,425	0,430	0,435	0,440
Y	0,888	0,889	0,890	0,891	0,892	0,893
Jadval 2 X	6	12	18	24	30	
Y	1,4179	1,4258	1,4396	1,4236	1,4315	

Variant 13

Jadval 1 X	0,33	0,38	0,45	0,52	0,60	0,65
Y	1,63597	1,73234	1,87686	2,03345	2,22846	2,35973
Jadval 2 X	1	5	9	14	18	
Y	0,702	0,512	0,645	0,736	0,608	

Variant 14

Jadval 1 X	0,03	0,09	0,13	0,18	0,24	0,31
Y	1,02316	1,0959	1,14725	1,21483	1,3012	1,4097
Jadval 2 X	2	6	10	14	18	
Y	0,102	0,114	0,125	0,203	0,154	

Variant 15

Jadval 1 X	0,25	0,31	0,37	0,41	0,46	0,54
Y	2,739	2,300	1,968	1,787	1,595	1,345
Jadval 2 X	3	6	9	12	15	
Y	0,526	0,453	0,482	0,552	0,436	

Variant 16

Jadval 1 X	0,21	0,26	0,32	0,40	0,45	0,52
Y	2,574	2,325	2,093	1,862	1,749	1,62
Jadval 2 X	4	7	10	13	16	
Y	0,616	0, 478	0,665	0,537	0,673	

Variant 17

Jadval 1 X	0,38	0,43	0,50	0,58	0,63	0,69
Y	0,808	0,894	1,029	1,209	1,340	1,523
Jadval 2 X	5	11	17	23	29	
Y	0,896	0,812	0,774	0,955	0,715	

Variant 18

Jadval 1 X	0,31	0,35	0,41	0,49	0,55	0,60
Y	9,054	6,616	4,691	3,351	2,739	2,365
Jadval 2 X	6	7	8	9	10	
Y	0,314	0,235	0,332	0,275	0,186	

Variant 19

Jadval 1 X	1,175	1,180	1,185	1,190	1,195	1,200
Y	5,041	5,177	5,320	5,470	5,629	5,797
Jadval 2 X	1	6	10	14	18	
Y	1,3832	1,3926	1,3862	1,3934	1,3866	

Variant 20

Jadval 1 X	0,215	0,220	0,225	0,230	0,235	0,240
Y	8,657	8,293	7,958	7,648	7,362	7,096
Jadval 2 X	2	7	12	17	22	
Y	0,1264	0,1315	0,1232	0,1334	0,1285	

Variant 21

Jadval 1 X	0,250	0,255	0,260	0,265	0,270	0,275
Y	6,616	6,399	6,196	6,005	5,825	5,655
Jadval 2 X	3	9	15	21	27	
Y	0,1521	0,1611	0,1662	0,1542	0,1625	

Variant 22

Jadval 1 X	0,280	0,285	0,290	0,295	0,300	0,305
Y	5,615	5,466	5,326	5,193	5,066	4,946
Jadval 2 X	4	10	16	22	28	
Y	0,1838	0,1875	0,1944	0,1976	0,2038	

Variant 23

Jadval 1 X	0,310	0,315	0,320	0,325	0,330	0,335
Y	4,831	4,722	4,618	4,519	4,424	4,333
Jadval 2 X	5	11	17	23	29	
Y	0,2121	0,2165	0,2232	0,2263	0,2244	

Variant 24

Jadval 1 X	1,315	1,320	1,325	0,330	0,335	0,340
Y	0,888	0,889	0,890	0,891	0,892	0,893
Jadval 2 X	6	12	18	24	30	
Y	1,4179	1,4258	1,4396	1,4236	1,4315	

Variant 25

Jadval 1 X	0,315	0,320	0,325	0,330	0,335	0,340
Y	8,657	8,293	7,958	7,648	7,362	7,096
Jadval 2 X	2	4	6	8	10	
Y	0,1264	0,1315	0,1232	0,1334	0,1285	

Variant 26

Jadval 1 X	0,450	0,455	0,460	0,465	0,470	0,475
Y	6,616	6,399	6,196	6,005	5,825	5,655
Jadval 2 X	3	7	11	15	19	
Y	0,1521	0,1611	0,1662	0,1542	0,1625	

Variant 27

Jadval 1 X	0,580	0,585	0,590	0,595	0,600	0,605
Y	5,615	5,466	5,326	5,193	5,066	4,946
Jadval 2 X	4	9	14	19	24	
Y	0,1838	0,1875	0,1944	0,1976	0,2038	

Variant 28

Jadval 1 X	0,410	0,415	0,420	0,425	0,430	0,435
Y	4,831	4,722	4,618	4,519	4,424	4,333
Jadval 2 X	3	10	17	24	31	
Y	0,2121	0,2165	0.2232	0,2263	0,2244	

Variant 29

Jadval 1 X	0,315	0,320	0,325	0,330	0,335	0,340
Y	0,888	0,889	0,890	0,891	0,892	0,893
Jadval 2 X	6	11	16	21	26	
Y	1,4179	1,4258	1,4396	1,4236	1,4315	

Variant 30

Jadval 1 X	2,315	2,320	2,325	2,330	2,335	2,340
Y	0,888	0,889	0,890	0,891	0,892	0,893
Jadval 2 X	3	7	11	15	19	
Y	1,4179	1,4258	1,4396	1,4236	1,4315	

4-LABORATORIYA ISHI

Kichik kvadratlar usuli
Tajriba natijalarining chiziqli va parabolik bog'laninshini aniqlash.

Maple dasturining buyruqlari:

with(stats)– *statistika paketidagi amallarni chaqirish;*

Vector([0.5,1,1.5,2,2.5,3],datatype=float)– *qiymatlarni vektorini aqlash;*

add(X[k],k=1..n)– *qiymatlar yig'indisini topish;*

Fit(a+b*t,X,Y,t)– *qiymatlar asosida ko'rsatilgan tenglamani aniqlash funksiyasi;*

fit[leastsquare[[x,y],y=a*x+b]]([[0.5,1,1.5,2,2.5,3],[6,5,3.7, 2.6,1.6, 0.6]])– *kichik kvadratlar usuli asosida ko'rsatilgan qiymatlar orasidagi chiziqli bog'lanish tenglamani aniqlash funksiyasi;*

fit[leastsquare[[x,y],y=a*x^2+b*x+c]]([[0.5,1,1.5,2, 2.5,3],[6,5,3.7,2.6,1.6,0.6]])]])– *kichik kvadratlar usuli asosida ko'rsatilgan qiymatlar orasidagi parabolik bog'lanish tenglamani aniqlash funksiyasi;*

with(CurveFitting):Interactive([[0.5,6],[1,5],[1.5,3.7],[2,2.6],[2.5,1.6], [3,0.6]],t)– *ko'rsatilgan nuqtalar orasidagi bog'lanishning grafigini Tutor muloqat oynasida qurish.*

Maqsad: Kichik kvadratlar usulida tajriba natijalarida topilgan qiymatlar orasidagi chiziqli va parabolik bog'laninshini aniqlash.

Reja:

4.1. Kichik kvadratlar usuli

4.2. To'g'ri chiziqli bog'laninsh tenglamasini aniqlash.

4.3. Ikkinchi darajali bog'laninsh tenglamasini topish.

4.4. Chiziqsiz bog'laninsh tenglamasini topish.

4.1. Kichik kvadratlar usuli

Aytaylik tajriba natijalari quyidagi jadval asosida berilgan bo'lsin.

x	x_1	x_2	x_3	...	x_n
y	y_1	y_2	y_3	...	y_n

Bu ikki o'zgaruvchilar orasidagi bog'lanish formulasini kichik kvadratlar usuli bilan analinik usulda aniqlash masalasini yechamiz. Buning uchun bog'laninshni ifodalovchi funksiyalar turini tanlaymiz.

Masalan:

1) chiziqli bog'laninsh: $y=ax+b$

2) parabolik bog'laninsh: $y=ax^2+bx+c$

Bu bog'lanishlarni aniqlashda ularning koeffitsentlarini aniqlash asosiy masala hisoblanadi. Umumiylik uchun izlanayotgan funksiyani

$$y=f(x,a,b,c)$$

ko'rinishda izlaymiz. Bu bog'lanishning a,b,c koeffitsentlarini aniqlash uchun berilgan jadval asocida

$$f(x_i, a,b,c)\approx y_i,\ i=1,2,...,n$$

shartni yozamiz. Bu izlanayotgan funksiya qiymatlari bilan jadvaldagi y_i lar orasidagi farq minimum yoki yetarlicha kichik bo'lish shartini topish uchun quyidagi funksianalni tuzamiz:

$$F(a,b,c)=\sum_{i=1}^{n}\left[y_i-f(x_i,a,b,c)\right]^2,\ i=1,2,...,n$$

Bu ko'p o'zgaruvchili $F(a,b,c)$ funksianing minimumini topish uchun quyidagi zaruriy sharttan foydalanamiz.

$$\begin{cases} F'_a(a,b,c)=0, \\ F'_b(a,b,c)=0, \\ F'_c(a,b,c)=0 \end{cases} \quad (*)$$

ya'ni

$$\begin{cases} \sum\limits_{i=1}^{n}\left[y_i-f(x_i,a,b,c)\right]\cdot f'_a(x_i,a,b,c)=0, \\ \sum\limits_{i=1}^{n}\left[y_i-f(x_i,a,b,c)\right]\cdot f'_b(x_i,a,b,c)=0, \\ \sum\limits_{i=1}^{n}\left[y_i-f(x_i,a,b,c)\right]\cdot f'_c(x_i,a,b,c)=0. \end{cases}$$

Ushbu sistemeni yechish bilan a,b,c larni topamiz va jadvalni ifodalovchi bog'lanish funktsiasini topamiz.

4.2. To'g'ri chiziqi bog'laninsh tenlamasini aniqlash

Chiziqli bog'lanish $f(x_i, a,b)=a\,x_i+b$, uchun $f'_a=x_i$, $f'_b=1$ bo'lganda, (*) zaruriy shatga asosan quyidagi tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz:

$$\begin{cases} \sum\limits_{i=1}^{n}\left[y_i-ax_i-b\right]\cdot x_i=0, \\ \sum\limits_{i=1}^{n}\left[y_i-ax_i-b\right]\cdot 1=0. \end{cases}$$

$$\begin{cases} \left(\sum_{i=1}^{n} x_i^2\right)a + \left(\sum_{i=1}^{n} x_i\right)b = \sum_{i=1}^{n} x_i y_i \\ \left(\sum_{i=1}^{n} x_i\right)a + nb = \sum_{i=1}^{n} y_i \end{cases}$$

Bu sistemani a,b larga nisbatan yechamiz:

$$a = \frac{n\sum_{i=1}^{n} x_i y_i - \sum_{i=1}^{n} x_i \sum_{i=1}^{n} y_i}{n\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - \left(\sum_{i=1}^{n} x_i\right)^2}, \quad b = \frac{\sum_{i=1}^{n} x_i^2 \cdot \sum_{i=1}^{n} y_i - \sum_{i=1}^{n} x_i \cdot \sum_{i=1}^{n} x_i y_i}{n\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - \left(\sum_{i=1}^{n} x_i\right)^2} \qquad (**)$$

4.1–masala. Tajriba natijasida topilgan quyidagicha o‘lchov natijalarining bog‘lanishini aniqlang.

3.1–jadval

x	0.5	1.0	1.5	2.0	2.5	3.0
y	6.0	5.0	3.7	2.6	1.6	0.6

Masalada berilgan 3.1– jadval asosida yuqoridagi kichik kvadratlar usuli bilan chiziqli bog‘lanishni aniqlash uchun (**) formuladan foydalanamiz:

1)bundagi yig‘indilarni hisoblaymiz: n=6

$$\sum_{i=1}^{6} x_i = 0.5+1+1.5+2+2.5+3 = 10.5$$

$$\sum_{i=1}^{6} x_i^2 = 0.5^2+1^2+1.5^2+2^2+2.5^2+3^2 = 22.75$$

$$\sum_{i=1}^{6} y_i = 6+5+3.7+2.6+1.6+0.6 = 19.5$$

$$\sum_{i=1}^{6} x_i y_i = 0.5\cdot 6+1\cdot 5+1.5\cdot 3.7+2\cdot 2.6+2.5\cdot 1.6+3\cdot 0.6 = 24.55$$

2) a va b larni hisoblaymiz:

$$a = \frac{6\cdot 24.55-10.5\cdot 19.5}{6\cdot 22.75-(10.5)^2} = \frac{147.3-204.75}{136.5-110.25} = \frac{-57.45}{26.25} = -2.18857$$

$$b = \frac{19.5\cdot 22.75-10.5\cdot 24.55}{6\cdot 22.75-(10.5)^2} = \frac{443.625-257.775}{136.5-110.25} = \frac{185.85}{26.25} = 7.08;$$

3)$y=ax+b$ bog‘lanishni yozamiz:

y=–2.18857 x+7.08.

Chiziqli bog ‘lanishni aniqlovchi dasturlarini tuzamiz:

4.1a–M a p l e d a s t u r i:

y =a+bx chiziqli bog'lanishni aniqlash.

1. Bog'lanishni aniqlash.

a) *To'g'ri chiziqi bog'laninshni yuqorida ko 'rsatilgan qoida asosida:*

> restart; with(stats):

> X:=Vector([0.5,1,1.5,2,2.5,3],datatype=float):

> Y:=Vector([6,5,3.7,2.6,1.6,0.6],datatype=float):

> n:=6:

> SX:=add(X[k],k=1..n); $SX := 10.5000000$

> SY:=add(Y[k],k=1..n); $SY := 19.5000000$

> SXX:=add(X[k]^2,k=1..n); $SXX := 22.7500000$

> SXY:=add(X[k].Y[k],k=1..n); $SXY := 24.5500000$

> ab:=solve([a*SX+n*b=SY,a*SXX+b*SX=SXY],{a,b});

$$ab := \{a = -2.188571429, b = 7.080000000\}$$

> y:=ab[1]*x+ab[2];

$$y := x\ a\ +\ b = -2.188571429x + 7.080000000$$

b) *To'g'ri chiziqi bog'laninshni* **Fit** *funksiyasi asosida:*

> with(Statistics):

> X := Vector([0.5,1,1.5,2,2.5,3], datatype=float):

Y := Vector([6,5,3.7,2.6,1.6,0.6], datatype=float):

> Fit(a+b*t, X, Y, t);

$$7.08000000000000274 \quad K \;\; 2.18857142857142950 \quad t$$

> evalf(Fit(a+b*t,*X*,*Y*,t),5); $7.0800 - 2.1886t$

c) *nuqtalardan o'tuvchi chiziqni kichik kvadratlar usulida topish:*

> fit[leastsquare[[x,y]]]([[0.5, 1, 1.5, 2, 2.5,3], [6,5, 3.7, 2.6, 1.6, 0.6]]);

$$y = 7.080000000 - 2.188571429x$$

2. Bog'lanishni grafigini qurish.

> with(stats):with(plots):

> r2:=rhs(fit[leastsquare[[*x*,*y*],y=a*x+b,{a,b}]]
([[0.5,1.0,1.5,2.0,2.5,3.0],[6.0,5.0,3.7,2.6,1.6, 0.6]]));

$$r2 := -2.188571429x + 7.080000000$$

> with(stats):with(plots):

> plot([r2,[[0.5,6],[1,5],[1.5,3.7],[2,2.6], [2.5,1.6],[3,0.6]]],x=–1..4,–1..8,style=[line,point], thickness=3,red],symbol=BOX,symbolsize=30, color=[blue);



4.1–rasm.

3. Bog'lanishning grafigini Tutor muloqat oynasida qurish(4.2–rasm).

4.1b–M a p l e d a s t u r i:

> with(CurveFitting):

Interactive([[0.5,6],[1,5],[1.5,3.7],[2,2.6],[2.5,1.6], [3,0.6]],t);



4.2–rasm.

4.3. Ikkinchi darajali(parabolik)
bog'lanish tenglamasini topish

Parabolik bog'laninsh $f(x_i, a, b, c) = ax_i^2 + bx_i + c$ uchun $f'_a = x_i^2$, $f'_b = x_i$, $f'_c = 1$ bo'lganda, (*) zaruriy shartga asosan quyidagi tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz:

$$\begin{cases} \sum_{i=1}^{n} [y_i - ax_i^2 - bx_i - c] x_i^2 = 0, \\ \sum_{i=1}^{n} [y_i - ax_i^2 - bx_i - c] x_i = 0, \\ \sum_{i=1}^{n} [y_i - ax_i^2 - bx_i - c] \cdot 1 = 0. \end{cases}$$

Bu sistemani quyidagicha yozamiz

$$\begin{cases} \left(\sum x_i^4\right)a+\left(\sum x_i^3\right)b+\left(\sum x_i^2\right)c=\sum y_i x_i^2 \\ \left(\sum x_i^3\right)a+\left(\sum x_i^2\right)b+\left(\sum x_i\right)c=\sum y_i x_i \\ \left(\sum x_i^2\right)a+\left(\sum x_i\right)b+nc=\sum y_i \end{cases} \quad (***)$$

va uni biror usul bilan yechib a,b,c larni topamiz.

3.1–jadval asosida $y=ax^2+bx+c$ parabolik bog'lanishni aniqlash uchun (***) formuladagi yig'indilarni hisoblab, quyidagi sistemani topamiz:

$$\begin{cases} 142.187a+55.125b+22.75c=40.625 \\ 55.125a+22.75b+10.5c=24.55 \\ 22.75a+10.5b+6c=19.5 \end{cases}$$

Bu sistemani yechib, a=0.0857, b=–2.288, c=7.28 larni topamiz va parabolik bog'lanishni yozamiz:

$$y=0.0857x^2-2.288x+7.28.$$

$y=ax^2+bx+c$ parabolik bog'lanishni aniqlash dasturini tuzamiz:

1)Bog'lanishni aniqlash.

4.2a--Maple dasturi:

a) *parabolik bog'laninshni yuqorida ko'rsatilgan qoida asosida:*

```
> restart; with(stats):
> X:= Vector([0.5,1.0,1.5,2,2.5,3]):
  Y:= Vector([6,5,3.7,2.6,1.6,0.6]):
> n:=6:
> SX:=add(X[k],k=1..n);  SX := 10.5
> SX2:=add(X[k]^2,k=1..n); SX2 := 22.75
> SX3:=add(X[k]^3,k=1..n); SX3 := 55.125
> SX4:=add(X[k]^4,k=1..n); SX4 := 142.1875
> SY:=add(Y[k],k=1..n);  SY := 19.5
> SYX2:=add(Y[k].X[k]^2,k=1..n); SYX2 := 40.625
> SYX:=add(X[k].Y[k],k=1..n); SYX := 24.55
> abc:=solve([a*SX4 + b*SX3 + c*SX2=SYX2,
    a*SX3 + b*SX2 + c*SX=SYX,
    a*SX2 + b*SX + c*n=SY],{a,b,c});
```

$abc := \{a = 0.08571428571, b = -2.488571429, c = 7.280000000\}$

```
> y:=abc[1]*x^2+abc[2]*x+abc[3];
```

$y := x^2 a + x b + c = 0.08571428571 x^2 - 2.488571429 x + 7.280000000$

b*) To'g'ri chiziqi bog'laninshni* **Fit** *funksiyasi asosida:*

```
> with(Statistics):
> X:=Vector([0.5,1,1.5,2,2.5,3],datatype=float):
Y := Vector([6,5,3.7,2.6,1.6,0.6],datatype=float):
Fit(a+b*t+c*t^2, X, Y, t);
```

$$7.28000000000000380 K\ 2.48857142857143244t$$
$$C\ 0.0857142857142865894t^2$$

c) *nuqtalardan o'tuvchi chiziqni kichik kvadratlar usulida topish:*

```
> restart; with(stats):
> fit[leastsquare[[x,y],y=a*x^2+b*x+c]]([[0.5,1,1.5, 2, 2.5,3],
[6,5,3.7,2.6,1.6, 0.6]]);
```

$$y = 0.08571428571x^2 - 2.488571429x + 7.28000000($$

2)Bog'lanishni grafigini qurish(4.3–rasm).

4.2b–M a p l e d a s t u r i:

```
> with(stats):with(plots):
> r3:=rhs(fit[leastsquare[[x,y],y=a*x^2+b*x+c]]
([[0.5,1.0,1.5,2.0,2.5,3.0],[6.0,5.0,3.7,2.6,1.6,0.6]]));
```

$$r3 := 0.08571428571x^2 K\ 2.488571429x\ C\ 7.28000000($$

```
> plot([r3,[[0.5,6],[1,5],[1.5,3.7],[2,2.6],
[2.5,1.6],[3,0.6]]],x=0..28,-12..10, thickness=3, style
=[line,point],color=[blue,red], symbol=BOX, symbolsize=30);
```
(4.3–rasm)

4.1–masala bo'yicha bog'lanishlarning yaqinlashishini aniqlash uchun ularning grafiklarini bitta koordinatalar sistemasida quramiz (4.4–rasm).

4.3–M a p l e d a s t u r i:

```
> restart;
> with(stats):with(plots):with(CurveFitting):
> r2:=rhs(fit[leastsquare[[x,y], y=a*x+b,{a,b}]]
([[0.5,1.0,1.5,2.0,2.5,3.0],[6.0,5.0,3.7,2.6,1.6, 0.6]]));
```

$$r2 := -2.188571429x + 7.08000000($$

```
> r3:=rhs(fit[leastsquare[[x,y], y=a*x^2+b*x+c]](
[[0.5,1.0,1.5,2.0,2.5,3.0],[6.0,5.0,3.7,2.6,1.6, 0.6]]));
```

$$r3 := 0.08571428571x^2 - 2.488571429x + 7.28000000($$

```
> r4:=rhs(fit[leastsquare[[x,y], y=a*x^3+b*x^2+c*x+d] ]([[0.5, 1.0,
1.5, 2.0,2.5,3.0],[6.0, 5.0, 3.7, 2.6, 1.6, 0.6]]));
```

$$r4 := 0.08888888889x^3 - 0.3809523810x^2 - 1.784126984x + 7.$$

```
> plot([r2,r3,r4,[[0.5, 6],[1,5],[1.5, 3.7],[2,2.6], [2.5, 1.6],[3,0.6]]],x=–6..30,–6..8,style=[line,line, point],color=[blue,red,green],thickness=3, symbol=BOX,symbolsize=20, view=[–6..30,–15..10]);
```

(4.4–rasm).



4.3–rasm.



4.4–rasm.

4.4. Chiziqsiz bog'laninsh tenglamasini topish

Tajriba natijasida topilgan x va y o'zgaruvchilar orasida bog'lanish quyidagi jadval ko'rinishida berilgan bo'lsin.

3.2–jadval

x	1	2	3	4	5	6	7	8
y	12.2	6.8	5.2	4.6	3.9	3.7	3.5	3.2

3.2–jadval uchun quyidagi bog'lanishlarning parametr (koeffitent)larini aniqlovchi formulalarni topamiz.

$y = a + \frac{b}{x}$ giperbolik bog'lanishni a, b parametrlarini kichik kvdratlar usuli asosida aniqlovchi quyidagi sistemani yozamiz:

$$\begin{cases} an + b\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{x_i} = \sum_{i=1}^{n} y_i \\ a\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{x_i} + b\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{x_i^2} = \sum_{i=1}^{n}\frac{y_i}{x_i} \end{cases}$$

Giperbolik bog'lanishni a,b parametrlarini aniqlash va bog'lanishning grafigini qurishning Maple dasturini tuzamiz (3.2–jadval uchun).

4.4–M a p l e d a s t u r i:

1) *Bog'lanishni aniqlash.*

```
> with(Statistics):
> X:= Vector([1,2, 3, 4, 5,6,7,8]):
```

```
Y:= Vector([12.2,6.8,5.2,4.6,3.9,3.7,3.5,3.2]):
> Fit(a+b/t, X, Y, t);
```

$$1.93576189703930290C\ \frac{10.160175230791024}{t}$$

2) *Bog'lanishni grafigini qurish.*

```
> with(plots):
> r4:=rhs(fit[leastsquare[[x,y],y=a+b/x]]([[1,2,3,4,
5,6,7,8],[12.2,6.8, 5.2, 4.6,3.9,3.7, 3.5, 3.2]]));
```

$$r4 := 1.935761897C\ \frac{10.16017523}{x}$$

```
> plot([r4,[[1,12],[2,6.8],[3,5.2],[4,4.6],[5,3.9],
[6,3.7],[7,3.5],[8,3.2]]],x=0..8,3..16,symbol=BOX,
symbolsize=30,style=[line,point],color=[blue,red], thickness=2);
```



4.4–rasm.

Quyidagi 3.3-jadvalda ko'rsatilgan bog'lanishlarning parametrlarini aniqlash uchun kichik kvadratlar usuli asosida tuzilgan sistemalarni beramiz.

3.3–jadval

T/r	Bog'lanish tenglamasi	Kichik kvadratlar usulida bog'lanish koeffitsentlarini aniqlovchi tenglamalar sistemasi
1	$y=a+bx$	$an+b\Sigma x=\Sigma yma,\ \Sigma x+b\Sigma x^2=\Sigma(xy)$
2	$lgy=a+bx$	$an+b\Sigma x=\Sigma lgym,\ a\Sigma x+b\Sigma x^2=\Sigma(xlgy)$
3	$y=a+blgx$	$an+b\Sigma lgx=\Sigma y,\ a\Sigma lgx+b\Sigma(lgx)^2=\Sigma(ylgx)$
4	$lgy=a+blgx$	$an+b\Sigma lgx=\Sigma y,\ \Sigma lgx+b\Sigma(lgx)^2=\Sigma(lgxlgy)$
5	$y=ab^x$ yoki $lgy=lga+blgx$	$an+b\Sigma lgx=\Sigma lgy$ $lga\Sigma lgx+lgb\Sigma x^2=\Sigma(lgxlgy)$
6	$y=a+bx+cx^2$	$an+b\Sigma x+c\Sigma x^2=\Sigma y$

		$a\Sigma x+b\Sigma x^2+c\Sigma x^3=\Sigma(xy)$ $a\Sigma x^2+b\Sigma x^3+c\Sigma x^4=\Sigma(x^2y)$
7	$y=a+bx+cx^2+dx^3$	$an+b\Sigma x+c\Sigma x^2+d\Sigma x^3=\Sigma y$ $a\Sigma x+b\Sigma x^2+c\Sigma x^3+d\Sigma x^4=\Sigma(xy)$ $a\Sigma x^2+b\Sigma x^3+c\Sigma x^4+d\Sigma x^5=\Sigma(x^2y)$ $a\Sigma x^3+b\Sigma x^4+c\Sigma x^5+d\Sigma x^6=\Sigma(x^3y)$
8	$y=a+bx+c\sqrt{x}$	$an+b\Sigma x+c\Sigma\sqrt{x}=\Sigma y$ $a\Sigma x+b\Sigma x^2+c\Sigma\sqrt{x}^3=\Sigma(xy)$ $a\Sigma\sqrt{x}+b\Sigma\sqrt{x}^3+c\Sigma x=\Sigma(\sqrt{xy})$
9	$y=ab^xc^{x^2}$ yoki $lgy=lga+xlgx+x^2lgc$	$nlga+lgb\Sigma x+lgc\Sigma x^2=\Sigma lgy$ $lga\Sigma x+lgb\Sigma x^2+lgc\Sigma x^3=\Sigma(xlgy)$ $lga\Sigma x^2+lgb\Sigma x^3+lgc\Sigma x^4=\Sigma(x^2lgy)$

O'z–o'zini tekshirish uchun savollar

1. Kichik kvadratlar usulining mohiyatini tushintring
2. Kichik kvadratlar usulida bog'lanish koeffitsentlarini topish sistemasini tuzish
3. Kichik kvadratlar usulida chiziqli va parabolik bog'lanishlarni topish qoidasini tushintiring
4. Chiziqliqi bog'lanish koeffitsentlarini topish formulasi
5. Parabolik bog'lanish koeffitsentlarini topish formulasi
6. Bog'lanishlar tenglamalarini aniqlashda koeffitsentlarni topish usullari

4–laboratoriya ishi bo'yicha mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

Quyidagi jadval uchun kichik kvadratlar usulida to'g'ri chiziqli va ikkinch darajali bog'lanishlarni aniqlang.

Variant 1

X	1,43	3,48	4,55	5,62	6,70	8,75
Y	1,635	1,732	1,876	2,033	2,228	2,359

Variant 2

X	0,02	1,08	0,12	3,17	4,23	0,30
Y	1,02316	1,095	1,147	1,214	1,301	1,409

Variant 3

X	0,35	3,41	0,47	4,51	0,56	7,64
Y	2,739	2,300	1,968	1,787	1,595	1,345

Variant 4

X	1,41	3,46	5,52	6,60	7,65	8,72
Y	2,574	2,325	2,093	1,862	1,749	1,620

Variant 5

X	0,68	0,73	0,80	0,88	0,93	0,99
Y	0,808	0,894	1,029	1,209	1,340	1,523

Variant 6

X	0,11	5,15	0,21	0,29	7,35	0,40
Y	9,054	6,616	4,691	3,351	2,739	2,365

Variant 7

X	1,375	1,380	1,385	1,390	1,395	1,400
Y	5,041	5,177	5,320	5,470	5,629	5,797

Variant 8

X	8,115	0,120	5,125	0,130	0,135	2,140
Y	8,657	8,293	7,958	7,648	7,362	7,096

Variant 9

X	0,150	0,155	8,160	0,165	0,170	3,175
Y	6,616	6,399	6,196	6,005	5,825	5,655

Variant 10

X	0,180	3,185	0,190	0,195	7,200	0,205
Y	5,615	5,466	5,326	5,193	5,066	4,946

Variant 11

X	0,210	1,215	0,220	8,225	0,230	0,235
Y	4,831	4,722	4,618	4,519	4,424	4,333

Variant 12

X	1,415	1,420	1,425	0,430	0,435	0,440
Y	0,888	0,889	0,890	0,891	0,892	0,893

Variant 13

X	0,33	4,38	0,45	9,52	0,60	0,65
Y	1,635	1,732	1,876	2,033	2,228	2,359

Variant 14

X	1,03	5,09	0,13	1,18	0,24	6,31
Y	1,023	1,095	1,147	1,214	1,301	1,409

Variant 15

X	0,25	0,31	0,37	0,41	0,46	0,54
Y	2,739	2,300	1,968	1,787	1,595	1,345

Variant 16

X	0,21	5,26	0,32	4,40	0,45	0,52
Y	2,574	2,325	2,093	1,862	1,749	1,620

Variant 17

X	0,38	7,43	0,50	0,58	2,63	1.69
Y	0,808	0,894	1,029	1,209	1,340	1,523

Variant 18

X	0,31	0,35	0,41	0,49	0,55	0,60
Y	9,054	6,616	4,691	3,351	2,739	2,365

Variant 19

X	1,175	1,180	1,185	1,190	1,195	1,200
Y	5,041	5,177	5,320	5,470	5,629	5,797

Variant 20

X	0,215	0,220	0,225	0,230	0,235	0,240
Y	8,657	8,293	7,958	7,648	7,362	7,096

Variant 21

X	0,250	0,255	0,260	0,265	0,270	0,275
Y	6,616	6,399	6,196	6,005	5,825	5,655

Variant 22

X	0,280	0,285	0,290	0,295	0,300	0,305
Y	5,615	5,466	5,326	5,193	5,066	4,946

Variant 23

X	0,310	0,315	0,320	0,325	0,330	0,335
Y	4,831	4,722	4,618	4,519	4,424	4,333

Variant 24

X	1,315	1,320	1,325	0,330	0,335	0,340
Y	0,888	0,889	0,890	0,891	0,892	0,893

Variant 25

X	0,315	0,320	0,325	0,330	0,335	0,340
Y	8,657	8,293	7,958	7,648	7,362	7,096

Variant 26

X	0,450	0,455	0,460	0,465	0,470	0,475
Y	6,616	6,399	6,196	6,005	5,825	5,655

Variant 27

X	0,580	0,585	0,590	0,595	0,600	0,605
Y	5,615	5,466	5,326	5,193	5,066	4,946

Variant 28

X	0,410	0,415	0,420	0,425	0,430	0,435
Y	4,831	4,722	4,618	4,519	4,424	4,333

Variant 29

X	0,315	0,320	0,325	0,330	0,335	0,340
Y	0,888	0,889	0,890	0,891	0,892	0,893

Variant 30

X	2,315	2,320	2,325	2,330	2,335	2,340
Y	2,888	3,889	4,890	5,891	6,892	7,893

5–LABORATORIYA ISHI

Aniq integralni taqribiy hisoblash

Maple dasturining buyruqlari:

with(Student[Calculus1])– *hisoblash paketidagi amallarni chaqirish;*

Int(f(x),x)– *aniqmas integralni ko'rinishini yozish;*

int(f(x),x)– *aniqmas integralni hisoblash;*

Int(f(x),x=a..b)– *aniq integralni ko'rinishini yozish;*

int(f(x),x=a..b)– *aniq integralni hisoblash;*

RiemannSum(f(x),x=a..b,method=left)– *chap(ostki) Riman integral yig'indilarini hisoblash;*

RiemannSum(f(x),x=a..b,method=left,output=plot)– *ostki to'rburchaklar grafigini qurish;*

ApproximateInt(f(x), a..b,method =trapezoid)– *aniq integralni trapetsiyalar usulida hisoblash;*

ApproximateInt(f(x), a..b, method= trapezoid, output=plot,thickness=2)– *aniq integralni trapetsiyalar usulida hisoblashdagi yuzani grafigini qurish;*

ApproximateInt(f(x), a..b,method =simpson, thickness=2)– *aniq integralni trapetsiyalar usulida hisoblash;*

> ApproximateInt(f(x), a..b, method=simpson, output=plot, thickness=2)– *aniq integralni Simpson usulida hisoblashdagi yuzani grafigini qurish;*

Maqsad: Aniq integralni taqribiy hisoblash usullarini o'rganish.

Reja:

5.1. To'g'ri to'rtburchaklar formulasi.

5.2. Trapetsiyalar formulasi.

5.3. Simpson yoki parabola formulasi.

Integrallanuvchi $f(x)$ funksiyaning boshlang'ichini $F(x)$ funksiyani bizga ma'lum funksiyalar orqali ifodalash mumkin bo'lmaganda hamda $f(x)$ funksiya jadval yoki grafik usul bilan berilganda integrallni taqribiy hisoblashga to'gri keladi.

Demak, aniq integralni geometrik ma'nisidan kelib chiqib, yassi yuzani taqribiy hisoblashning bir necha usullsrini keltiramiz.

Aytaylik $[a,b]$ oraliqda $f(x)$ funksiya grafigi yordamida $x=a$, $x=b$ hamda $y=0(Ox)$ to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan yuzani hisoblash kerak bo'lsin.

Berilgan $[a,b]$ oraliqda qadami $h=(b-a)/n$ bo'lgan bo'linish nuqtalarida integral ostidagi funksiya qiymatlarini hisoblaymiz.

$$x_0=a,\ x_i=x_{i-1}+h,\ y_i=f(x_i),\ i=0,1,2,\ \dots,n.$$

Hosil bo‘lgan bo‘linishlar bo‘yicha asosi h, balandligi

$$y_i=f(x_i),\quad i=0,1,2,\ldots,n$$

funksiya qiymatlaridan iborat bo‘lgan yuzalarning integral yig‘indilarini tuzamiz:

$$s=\sum_{i=1}^{n} hf(x_i)=\sum_{i=1}^{n} hy_i$$

Quyida bunday yuzalarni taqribiy hisoblash formulalarini ko‘ramiz.

5.1. To‘g‘ri to‘rtburchaklar formulasi

Aniq integralni taqribiy hisoblashda ichki va tashqi to‘g‘ri to‘rtburchaklar(5.1–rasm) bo‘yicha (chap va o‘ng yig‘indilar) hisoblash formulasi quyidagicha bo‘ladi.



5.1–rasm.

$$\int_a^b f(x)dx \approx h\sum_{i=1}^{n} f(x_i)=h(y_1+y_2+\ldots y_n)$$

$$\int_a^b f(x)dx \approx h\sum_{i=0}^{n-1} f(x_i)=h(y_0+y_1+y_2+\ldots y_{n-1}),$$

5.2. Trapetsiyalar formulasi

Aniq integralni taqribiy hisoblash formulasi quyidagicha bo‘ladi.

$$\int_a^b f(x)dx \approx h\left[\frac{f(a)+f(b)}{2}+\sum_{r=1}^{n-1} f(x_k)\right]=h\left[\frac{y_0+y_n}{2}+y_1+y_2+\ldots+y_{n-1}\right]$$



5.2–rasm.



5.3–rasm.

5.3. Simpson yoki parabola formulasi

Berilgan kesmadagi bo‘linish huqtalariga mos egri chiziqning har uch nuqtasiga parabola uch hadini(5.3–rasm) qo‘llash bilan, aniq integralni taqribiy hisoblashning Simson formulasi quyidagicha bo‘ladi($h=(b-a)/2n$).

$$\int_a^b f(x)dx \approx \frac{h}{3}[f(a)+f(b)+4\sum_{k=1}^{n} f(x_{2k-1})+2\sum_{k=1}^{n-1} f(x_{2k})]$$

$$\int_a^b f(x)\mathrm{d}x \approx \frac{h}{3}[y_0+y_n+4(y_1+y_3+...+y_{2k-1})+2(y_2+y_4+...+y_{2k})]$$

Yuqoridagi formulalarning integral yig‘indilari $h\to 0$ dagi integralning qiymatini beradi. Bu qiymat, tanlangan h uchun hisoblangan yig‘indi qiymatidan $R_n(f)$ miqdorga farq qiladi. Bu farq–hatolikni ε ($0<\varepsilon<1$) aniqlikda

$$|R_n(f)|<\varepsilon$$

shart bo‘yicha baholashni oraliqni bo‘linishlar sono n yoki h qadamlarni tanlash bilan aniqlaymiz. Aniq integralni hisoblashning taqribiy formulalar bo‘yich hatoliklar quyidagicha:

1) to‘rt burchaklar usuli uchun: $R_n(f)=\frac{b-a}{24}f''(\xi)h^2,\ \xi\in[a,b]$;

2) trapetsiyalar usuli uchun: $R_n(f)=\frac{b-a}{12}f''(\xi)h^2,\ \xi\in[a,b]$;

3) Simpson usuli uchun: $R_n(f)=\frac{b-a}{180}f^{(IV)}(\xi)h^4,\ \xi\in[a,b]$.

5.1–masala. Ushbu $\int_2^{3,5}\frac{dx}{\sqrt{5+4x-x^2}}$ aniq integralda [2,3.5] oraliqning bo‘linishlar soni $n=10$ bo‘lganda to‘gri to‘rtburchaklar, trapetsiyalar va Simpson formulalari bilan $e=0.001$ aniqlikda hisoblang.

Yechish.

1.Aniq integralni bevosita integrallash va hisoblashning Maple dasturi.

5.1–M a p l e d a s t u r i:

1) *Boshlang‘ich funksiyasini topish:*

```
> Int( 1/sqrt(5+4*x–x^2),x)=int(1/sqrt(5+4*x–x^2),x);
```

$$\int \frac{1}{\sqrt{5+4x-x^2}}\,dx = \arcsin\left(-\frac{2}{3}+\frac{1}{3}x\right)$$

2) 10 xona aniqlikda taqribiy hisoblash.

```
> f:= 1/sqrt(5+4*x-x^2):
> Int(f,x=2..3.5)=evalf(int(f,x=2..3.5, digits=10, method=_Dex));
```

$$\int_{2}^{3.5} \frac{1}{\sqrt{5+4x-x^2}}\,dx = 0.523598775$$

```
> evalf(Int( 1/sqrt(5+4*x-x^2),x=2..3.5)); 
```
0.523598775

```
> evalf[25](Int(1/sqrt(5+4*x-x^2),x=2..3.5 ));
```

$$0.5235987755982988730771\,0$$

2.Berilgan aniq integralni taqribiy hisoblash. Berilgan [2,3.5] oraliqning bo'linish qadami

$$h=(b-a)/n=(3.5-2)/10=0.15$$

bo'lganda, bo'linish nuqtalari

$$x_i=a+i\,h,\ i=1,2,...,10$$

bo'lsa, nuqtalarni [2,3.5] oraliqda aniqlab, bu nuqtalarda integral ostidagi funksiya qiymatlarini topamiz.

$x_0=2.00$ $y_0 = f(2) = \dfrac{1}{\sqrt{5+4\cdot 2-3^2}} = 0,3333$

$x_1=2.15$ $y_1 = f(2.15) = 0,3388$

$x_2=2.30$ $y_2=f(2,30)=0,3350$

$x_3=2.45$ $y_3=f(2,45)=0,3371$

$x_4=2.60$ $y_4=f(2,60)=0,3402$

$x_5=2.75$ $y_5=f(2,75)=0,3443$

$x_6=2.90$ $y_6=f(2,90)=0,3494$

$x_7=3.05$ $y_7=f(3,05)=0,3558$

$x_8=3.20$ $y_8=f(3,20)=0,3637$

$x_9=3.35$ $y_9=f(3.35)=0.3733$

$x_{10}=3.50$ $y_{10}=f(3,50)=0,3849$

Topilgan x va y larning qiymatlarini integralni taqribiy hisoblash formulalariga qo'yib integralning qiymatini hisoblaymiz.

To'g'ri to'rtburchaklar formulasiga asosan hisoblash

$$\int_{2}^{3,5} \frac{dx}{\sqrt{5+4x-x^2}} \approx 0.15(0.3333+0.3388+0.3350+0.3371+0.3402+$$

$$+0.3443+0.3494+0.3858+0.3637+0.3733+0.3849) = 0.5755$$

Bu to'g'ri to'rtburchaklar usulida hisoblashning Maple dasturining ikkita variantini ko'rsatamiz.

1.Yuqoridagi hisoblash algoritimi asosida:

5.1a–Maple d a s t u r i:

```
> restart;
> f:=x->1/sqrt(5+4*x-x^2);
```

$$f := x \to \frac{1}{\sqrt{5+4x-x^2}}$$

```
> n:=10: a:=2: b:=3.5: h:=(b-a)/n:
> x:= array(1..10):y:= array(1..10):
> S1:=0:
> for i to n do
x[i]:=evalf(a+(i-1)*h,5): y[i]:=evalf(f(x[i]),5):
S1:=S1+y[i]: end do:
print(x,y),print("Tort burchak usulida S1=",S1*h);
```

[2., 2.1500, 2.3000, 2.4500, 2.6000, 2.7500, 2.9000, 3.0500, 3.2000, 3.3500], [0.33333, 0.33376, 0.33501, 0.33714, 0.34021, 0.34427, 0.34943, 0.35585, 0.36370, 0.37325]

"Tort burchak usulida S1=",0.519892500

2. Integral yeg'indilar bo'yicha **RiemannSum** funksiyasi yordamida hisoblash va yuzaning grafigini qurish:

5.1b–M a p l e d a s t u r i:

```
> restart; with(Student[Calculus1]):
```

1)*ostki to'g'ri to'rtburchaklar bo'yicha hisoblash va grafigini qurish:*

```
> RiemannSum(1/sqrt(5+4*x-x^2),x=2..3.5,method=left);
```

0.519891512

```
> RiemannSum(1/sqrt(5+4*x-x^2),x=2..3.5,method=left,
output=plot);
```
(5.1a–rasm)

2) *ustki to'g'ri to'rtburchaklar bo'yicha hisoblash va grafigini qurish:*

```
> RiemannSum(1/sqrt(5+4*x-x^2),x=2..3.5,method= right);
```

0.527626539

```
> RiemannSum(1/sqrt(5+4*x-x^2),x=2..3.5,method=
right,output=animation);
```
(5.1b–rasm)



5.1a–rasm.



5.1b–rasm.

Trapetsiya formulasiga asosan hisoblash

$$\int_2^{3.5}\frac{dx}{\sqrt{5+4x-x^2}} \approx 0,15\left(\frac{0.3333+0.3849}{2}+0.3388+0.3350+0.3371+0.3402+\right.$$

$$\left.+0.3443+0.3494+0.3858+0.3637+0.3733\right)=0.15\cdot 3.49178=0,52376$$

Bu trapetsiya usulida hisoblashning Maple dasturi:

1.Yuqoridagi hisoblash algoritimi asosida:

5.2a–Maple d a s t u r i:

> restart;

> f:=x–>1/sqrt(5+4*x–x^2); $f := x \rightarrow \frac{1}{\sqrt{5+4x-x^2}}$

> n:=10: a:=2: b:=3.5: h:=(b–a)/n:

> x:= array(1..10):y:= array(1..10):

> S2:=(f(a)+f(b))/2; $S2 := 0.359116756$

> for i to n–1 do

x[i]:=evalf(a+i*h,5): y[i]:=evalf(f(x[i]),5):

S2:=S2+y[i]: end do:

print(x,y),print("Trapetsiya usulida S2=",S2*h);

[2.1500, 2.3000, 2.4500, 2.6000, 2.7500, 2.9000, 3.0500, 3.2000, 3.3500, 3.3500], [0.33376, 0.33501, 0.33714, 0.34021, 0.34427, 0.34943, 0.35585, 0.36370, 0.37325, 0.37325]

"Trapetsiya usulida S2=","0.523760513"

2.Integralni **ApproximateInt** funksiyasi yordamida hisoblash va yuzaning grafigini qurish:

5.2b–Maple dasturi:

> restart;with(Student[Calculus1]):

> ApproximateInt(1/sqrt(5+4*x–x^2), 2..3.5,
method = trapezoid); 0.523759026

> ApproximateInt(1/sqrt(5+4*x–x^2), 2..3.5, method=trapezoid, output=plot,thickness=2); (5.4–rasm)

Simpson formulasiga asosan hisoblash.

$$\int_2^{3,5}\frac{dx}{\sqrt{5+4x-x^2}}\approx\frac{0,15}{3}[0,3333+0,3849+4(0,3338+0,3371+0,3443+0,3558+$$
$$+0,3733)+2(0,3350+0,3402+0,3494+0,3637)]=0,54265.$$

Bu Simpson usulida hisoblashning Maple dasturi:

1.Yuqoridagi hisoblash algoritimi asosida:

5.3a–Maple dasturi:

> restart;f:=x–>1/sqrt(5+4*x–x^2); $f:=x\to\dfrac{1}{\sqrt{5+4x-x^2}}$

> n:=10: a:=2: b:=3.5: h:=(b–a)/n:

> x:= array(1..10):y:= array(1..10):

> S3:=f(a)+f(b);c:=1: $S3:=0.718233512$

> for i to n–1 do
x[i]:=evalf(a+i*h,5): y[i]:=evalf(f(x[i]),5):
S3:=S3+(c+3)*y[i]:c:=–c: end do: print(x,y),print("Simpson usulida S3=",S3*h/3);

[2.1500, 2.3000, 2.4500, 2.6000, 2.7500, 2.9000, 3.0500, 3.2000, 3.3500, 3.3500], [0.33376, 0.33501, 0.33714, 0.34021, 0.34427, 0.34943, 0.35585, 0.36370, 0.37325, 0.37325]

"Trapetsiya usulida S3=","0.523600675"

2.Integralni **ApproximateInt** funksiyasi yordamida hisoblash va yuzaning grafigini qurish:

5.3b–Maple dasturi:

> ApproximateInt(1/sqrt(5+4*x–x^2),2..3.5,

method=simpson, thickness=2); 0.523598806

> ApproximateInt(1/sqrt(5+4*x--x^2),2..3.5, method=simpson, output=plot,thickness=2); (5.3a--rasm)





5.4–rasm. 5.4a–rasm.

Yuza grafigini bo'linishlarni animatsiyasi asosida qurish.

> with(Student[Calculus1]):

> ApproximateInt(1/sqrt(5+4*x –x^2), 2..3.5, method=simpson, output=animation); (5.5–rasm)



5.5–rasm.

Yuqorida topilgan integrallarning taqribiy qiymatlarini baholash.

1) To'g'ri to'rtburchaklar formulasi xatoligini bahosi:

$$f(x)=\frac{1}{\sqrt{5+4x-x^2}}=\frac{1}{\sqrt{9-(x-2)^2}}\Rightarrow x\in[2,3.5]\Rightarrow\frac{1}{3}\le f(x)\le 0,3849.$$

$x\in[2,3.5]$ *кесма учун*

$$f'(x)=-\frac{4-2x}{2(\sqrt{5+4x-x^2})^3}=\frac{2(x-2)}{2(5+4x-x^2)\sqrt{5+4x-x^2}}=\frac{x-2}{(5+4x-x^2)\cdot\sqrt{5+4x-x^2}}=(x-2)y^3$$

$$f'(x)=(x-2)\,f^3(x);\qquad |f'(x)|=|x-2|\cdot|f^3(x)|<1.5\cdot 0.3849^3=0.0855\Rightarrow M_1\le 0.0855;$$

$$|R(h)|\le\frac{(b-a)M_1}{2}h<\frac{1.5\cdot 0.0855}{2}\cdot(0.15)=0.096\approx 0.01.$$

2) Trapetsiyalar formulasi xatoligining bahosi:

$$f''(x)=f^3(x)+(x-2)\cdot 3f^2(x)\cdot f'(x)=f^3(x)+(x-2)\cdot 3f^2(x)\cdot(x-2)f^3(x)=$$

$$=(1+3(x-2)^2f^2(x))f^3(x)\Rightarrow|f''(x)|<(1+3\cdot 2.25\cdot 0.3849^2)\cdot 0.3849^3=0.1140\Rightarrow M_2=0.1140$$

$$M_2<0.11;\qquad |R(h)|<\frac{1.5\cdot 0.1140}{12}\cdot 0.15^2=0.0003.$$

3) Simpson formulasi xatoligining bahosi:

$$f^{IV}(x)=(9+(90+105(x-2)^2f^2(x))(x-2)^2f^2(x))f^5(x)\Rightarrow$$

$$\Rightarrow|f^{IV}(x)|<(9+(90+105\cdot 1.5^2\cdot 0.3849^2))1.5^2\cdot 0.3849^2)0.3849^5=0.4256\Rightarrow$$

$$\Rightarrow M_4=0.4256$$

$$|R(h)|<\frac{1.5\cdot 0.4256}{180}\cdot 0.15^4\approx 0.000002.$$

Bu baholashni qaralayotgan integralning aniq qiymati bo‘lgan $\pi/6$ soni bilan taqqoslash natijasi ham tasdiqlaydi. Haqiqatdan ham $\pi=3.1416$ (0.0001 aniqlikda) deb olsak integralning aniq qiymatining 0.0001 aniqlikdagi qiymati 0.5236 bo‘lishini ko‘ramiz, bu esa yuqorida Simpson formulasi yordamida olingan taqribiy qiymat bilan bir xildir.

Olingan xatoliklarni baholashlardan ko‘rinadiki, Simpson formulasining aniqligi sezilarli yuqori ekan.

O‘z–o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Qanday hollarda aniq integralni taqribiy hisoblanadi?
2. Bo‘linish qadamini toping.
3. Oraliqning bo‘linish nuqtalari qanday topiladi?
4. To‘g‘ri to‘rtburchaklar usuli va formulasini tushuntiring.
5. Trapetsiyalar usuli va formulasini tushuntiring.
6. Simpson usuli va formulasini tushuntiring.
7. Aniq integralni taqribiy hisoblashlardagi xatoliklarini qanday baholaymiz?
8. Simpson usulini boshqa usullardan farqi.
9. Simpson usulida bo‘linish qadamini aniqlash.

5–laboratoriya ishi
bo'yicha mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

Quyidagi integrallarni to'g'ri to'rtburchaklar, trapetsiyalar, Simpson usullarida hisoblang.

1. $\int_1^{3,5} \frac{\ln x}{x\sqrt{1+\ln x}}dx$

2. $\int_{\frac{\pi}{6}}^{\frac{\pi}{3}} (tg^2 x + ctg^2 x)dx$

3. $\int_1^4 \frac{1}{x}\ln^2 x dx$

4. $\int_2^3 \frac{1}{x\lg x}dx$

5. $\int_0^{\ln 2} \sqrt{e^x - 1}dx$

6. $\int_0^1 xe^x \sin x dx$

7. $\int_0^2 \frac{1}{\sqrt{9+x^3}}dx$

8. $\int_1^{2.5} \frac{1}{x^2}\sin\frac{1}{x}dx$

9. $\int_0^3 x\,arctg\,x dx$

10. $\int_0^3 \arcsin\sqrt{\frac{x}{1+x}}dx$

11. $\int_1^3 x^x(1+\ln x)dx$

12. $\int_0^1 \frac{dx}{\sqrt{1+3x+2x^2}}$

13. $\int_1^2 \frac{1}{x}\sqrt{x^2+0.16}dx$

14. $\int_0^1 \frac{x\,arctg\,x}{\sqrt{1+x^2}}dx$

15. $\int_0^2 \frac{e^{3x}+1}{e^x+1}dx$

16. $\int_0^{1.99} x^2\sqrt{4-x^2}dx$

17. $\int_0^{\pi} e^x \cos^{-2} x dx$

18. $\int_1^e (x\ln x)^2 dx$

19. $\int_{-1}^2 \arccos\sqrt{\frac{x}{1+x}}dx$

20. $\int_0^1 \frac{(x^2+4)dx}{(x^2+1)\sqrt{x^4+1}}$

21. $\int_1^{1.5} \sin x \ln(tgx)dx$

22. $\int_0^{1.5} \frac{e^x(1+\sin x)}{1+\cos x}dx$

23. $\int_0^{3\ 4} (x+1)/\sqrt{x^2+1}dx$

24. $\int_0^1 \frac{dx}{(3\sin x + 2\cos x)^2}$

25. $\int_1^2 (\frac{\ln x}{x})^3 dx$

26. $\int_1^2 \frac{x^3}{\sqrt{x+3}} dx$

27. $\int_1^2 \frac{x}{x^4 + 3x^2 + 2} dx$

28. $\int_0^{\frac{\pi}{2}} \sqrt{1 - \frac{1}{4}\sin 2x} dx$

29. $\int_0^{\frac{\pi}{2}} \sqrt{2 + \cos x} dx$

30. $\int_{\ln 2}^{\ln 3} \frac{e^{2x}}{e^x - e^{-x}} dx$

6-LABORATORIYA ISHI

Birinchi tartibli oddiy differensial tenglama uchun Koshi masalasini taqribiy yechish
Maple dasturining buyruqlari:

diff(y(x),x)=cos(y(x)/sqrt(5))+x *–differensial tenglamani ifodalash*

Bsh1 := y(1.8)=2.6– *boshlang'ich shartni kiritish:*

with(DEtools):DEplot(Odt1,y(x),x=–5..3,y=–1..5, [y(1.8)=2.8],linecolor=[red])– *ko'rsatilgan sohada differensial tenglamaning boshlang'ich sharti asosida yechim grafifini qurish;*

dsolve({Odt1,Bsh1},numeric,method=classical)– *differensial tenglamaning yechimini Eyler usulida topish;*

dsolve({dsol1,init1}, numeric, method=rkf45, output= procedurelist)– *differensial tenglamaning yechimini Runge–Kutta usulida topish;*

dsolve(dsys1,numeric,method=rkf45,output=procedurelist)– *differensial tenglamalar sistemasinig yechimini Runge–Kutta usulida topish;*

Maqsad: Birinchi tartibli oddiy differensial tenglama uchun Koshi masalasini taqribiy yechish usullarini o'rganish.

Reja: 6.1. Eyler usuli.

6.2. Runge – Kutta usuli.

6.3. Birinchi tartibli differensial tneglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini Eyler usulida taqribiy yechish.

6.1. Eyler usuli

Aytaylik bizga birinchi tartibli

$$\frac{dy}{dx} = f(x,y) \text{ yoki } y_0 = f(x_0) \quad (6.1)$$

differensial tenglama berilgan bo'lib, $[x,b]$ kesmada

$$x=x_0,\ y=y_0 \quad (6.2)$$

boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi yechimni taqribiy hisoblash masalasi qo'yilgan bo'lsin. Bu masala *Koshi masalasi* deyiladi. Bu masalani taqribiy yechishning bir necha usullarini ko'ramiz.

Berilgan $[x_0,b]$ kesmani n ta teng bo'lakka bo'lib bo'linish nuqtalari orasidagi qadam

$$h=(b-x_0)/n \quad (6.3)$$

bo'lganda, bu nuqtalar koordinatalari

$$x_i=x_{i-1}+h,\ i=1, 2, \dots n \quad (6.4)$$

bo'ladi. (6.2) boshlang'ich shartlardagi x_0 va y_0 lardan foydalanib tenglama yechimining qiymatlarini taqriban quyidagicha hisoblaymiz.

$$y_1 = y_0 + hf\left(x_0, y_0\right),$$



6.1-rasm.

$$y_2 = y_1 + hf\left(x_1, y_1\right),$$

$$y_3 = y_2 + hf\left(x_2, y_2\right),$$

... ...

$$y_n = y_{n-1} + hf\left(x_{n-1}, y_{n-1}\right).$$

natijada izlanaetgan yechimni qanoatlantiruvchi

$$(x_0;y_0),\ (x_1;y_1),\ (x_2;y_2),\ \ldots\ldots,\ (x_n;y_n)$$

nuqtalarni aniqlaymiz. Bu nuqtalarni tutashtiruvchi sinik chiziq Eyler chiziqi (6.1–rasm) deb ataladi va u tenglama yechimining taqribiy grafigini ifodalydi.

6.1–masala. $y' = x + \cos\left(y/\sqrt{5}\right)$ birinchi tartibli differentsial tenglamaning [1.8,2.8] oraliqda x_0=1.8, y_0=2.6 boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi yechimini Eyler usulida h=0.1 qadam bilan ε=0.0001 aniqlikda hisoblang.

1. Berilgan differensial tenglamani Eyler usulida yechamiz, [1.8,2.8] oraliqni h=0.1 qadam bilan

$$n = \frac{b-a}{h} = \frac{2.8-1.8}{0.1} = 10$$

n=10 ta bo'lakka ajratamiz. Bo'linish nuqtalarini

$$x_i = x_{i-1} + h\quad i = 1,2,...,10$$

formulaga asosan topamiz:

$$x_1 = x_0 + h = 1.8 + 0.1 = 1.9$$

$$x_2=x_1+h=1.9+0.1=2.0$$

shuningdek

$x_3=2.1$, $x_4=2.2$, $x_5=2.3$, $x_6=2.4$, $x_7=2.5$, $x_8=2.6$, $x_9=2.7$, $x_{10}=2.8$

Berilgan tenglamaning o'ng tomonidagi

$$f(x,y)=x+\cos(y/\sqrt{5})$$

funksiyaga asosan, Eyler qoidasi bilan quyidagi

$$y_i = y_{i-1} + h f\left(x_{i-1}, y_{i-1}\right),\ i=1,2,...,10$$

formulaga asosan berilgan differitsial tenglama yechimining qiymatlarini quyidagicha hisoblaymiz.

$y_1=y_0+hf(x_0,y_0)=y_0+h(x_0+\cos(y_0/\sqrt{5}))=2.6+0.1(1.8+$

$+\cos(2.6/\sqrt{5}))=2.6+0.1(1.8+0.3968)=2.81968;$

$y_2=y_1+h\,f(x_1,y_1)=y_1+h(x_1+\cos(y_1/\sqrt{5}))=$

$=2.819+0.1(1.9+\cos(2.819/\sqrt{5}))=2.819+0.1(1.9+0.3968)=3.03948$

Shuningdek, qolgan qimatlarini topamiz:

$y_3=3.261$, $y_4=3.4831$, $y_5=3.7045$, $y_6=3.926$,

$y_7=4.1478$, $y_8=4.3701$, $y_9=4.5931$, $y_{10}=4.8173$

6.1–masalani Eyler usulida taqribiy yechimni boshlang'ich shart bo'yicha berilgan oraliqdagi grafigini qurish va taqribiy qiymatlarini hisoblashning Maple dasturini tuzamiz.

6.1–M a p l e d a s t u r i:

Berilgan differensial tenglamani aniqlash:

> Odt1 := diff(y(x),x) = cos(y(x)/sqrt(5)) + x;

$$Odt1 := \frac{d}{dx}\, y(x) = x + \cos\left(\frac{1}{5}\, y(x)\, \sqrt{5}\right)$$

Boshlang'ich shartni kiritish:

> Bsh1 := y(1.8)=2.6; $Bsh1 := y(1.8) = 2.6$

Berilgan tenglama umumiy yechimning egri chiziqlari oilasidan boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi yechim egri chiziqning grafigini qurish:

```
> with(DEtools):with(plots):
> Odt1:= diff(y(x),x)=x+cos(y(x)/sqrt(5));
UYG:=DEplot(Odt1,y(x),x=-5..3,y=-1..5,[y(1.8)=2.8],
linecolor=[red]):
point1:=pointplot({[1.8,2.8]},symbol=circle,
color=blue, symbolsize=35,thickness=3):     display([UYG,point1]);
```

(6.2–rasm)

$$Odt1 := \frac{d}{dx}\, y(x) = x + \cos\left(\frac{1}{5}\, y(x)\, \sqrt{5}\right)$$



6.2–rasm.

*Eyler usulida taqribiy yechim qiymatlarini hisoblash(*1*–matritsa):*

> Eyler1:=dsolve({Odt1,Bsh1},numeric,method= classical);

$$Eyler1 := \mathbf{proc}(x\_classical)\ \dots\ \mathbf{end\ proc}$$

> Eyler1:=dsolve({Odt1,Bsh1},numeric,method= classical[heunform],output=array([1.8,1.9,2.0,2.1, 2.2,2.3,2.4,2.5,2.6,2.7,2.8]),stepsize=0.1);

Eyler usulida taqribiy yechim qiymatlarini ε=0.0001 *aniqlikda hisoblash*

(2–matritsa):

> Eyler1[0.0001]:=evalf(%,5)

Eyler1 :=

x	$y(x)$
1.8	2.6
1.9	2.82008383977484334
2.0	3.04079135910489784
2.1	3.26185265840353056
2.2	3.48310029665325294
2.3	3.70446754796907829
2.4	3.92598510229428266
2.5	4.14777688786095400
2.6	4.37005564842779038
2.7	4.59311883395067076
2.8	4.81734527606424035

1–matritsa

$Eyler1_{0.0001}$:=

x	$y(x)$
1.8	2.6
1.9	2.8201
2.0	3.0408
2.1	3.2619
2.2	3.4831
2.3	3.7045
2.4	3.9260
2.5	4.1478
2.6	4.3700
2.7	4.5931
2.8	4.8172

2–matritsa

2. Endi berilgan differensial tenglamaning taqribiy yechimi qiymatlari bo‘yicha interpolyasiya polinomini aniqlaymiz va uning grafigining ko‘rinishi qulay bo‘lgan [–8,8] kesmaga mos bo‘lagini ajratamiz. Berilgan tenglama yechimining Maple dasturida topilgan grafigi bilan taqribiy yechim grafiklarini qurib, ularni yaqinlashishini ko‘rsatamiz (6.3–rasm):

6.2–Maple dasturi:

> restart; with(plots):with(DEtools):

Umumiy yechimning [–8,8] kesmadagi grafigi:

> p1:=DEplot(diff(y(x),x$1)=x+cos(y(x)/sqrt(5)),y(x), x=–9..9,[[y(1.8)=2.6]],y=–2..40,stepsize=.005, linecolour=red);

$p1 := PLOT(...)$

Taqribiy yechimning qiymatlari asosida [–8,8] kesmaga mos nuqtalarni aniqlash:

> points1:=[[–8,28.345],[–5,9.456],[–3,1.106], [–1,–0.981], [0,–0.556],[1,0.924],[2,3.040], [3,5.270], [5,12.041], [8,31.936]]:

Taqribiy yechimning qiymatlari asosida uning [–8,8] kesmadagi mos nuqtalarni qurish:

> pointplot1:=pointplot(points1,symbol=BOX, color=blue,symbolsize=30):

Taqribiy yechimning qiymatlari asosida [–8,8] kesmadagi polinomni ajratish:

> polycurve:=PolynomialInterpolation(points1,x);

$$polycurve := -1.022970837 10^{-8}\, x^9 - 0.00001116290476 x^8 + 0.000005247135533 x^7 + 0.001065649544 x^6 + 0.0000384717288 x^5 - 0.02357817007 x^4 - 0.03316631771 x^3 + 0.5500236749 x^2 + 0.985622607 x - 0.55599999$$

Taqribiy yechimning qiymatlari asosida [–8,8] kesmada polinomning grafigini qurish:

> polyplot:=plot(polycurve,x=–9..9,color=red, thickness=3):

Grafikda chziqlar nomini ko'rsatish:

> tp1:=textplot([6,36,typeset("Umumiy yechim")], align=above):

> tp2:=textplot([4,25,typeset("Taqribiy yechim")], align=above):

Umumiy va taqribiy yechimning [–8,8] kesmadagi grafigini qurish:

> display([pointplot1,polyplot,p1,tp1,tp2]);(6.3–rasm)



6.3–rasm.

6.2. Runge – Kutta usuli

Maqsad: Birinchi tartibli oddiy differensial tenglama uchun Koshi masalasini Runge – Kutta usulida taqribiy yechishni topishni o'rganish

Reja: 1. Runge – Kutta usuli

2. Maple dasturida hisoblash.

Yuqoridagi birinchi tartibli (6.6) tenglamani (6.7) shartni qanoatlantiruvchi taqribiy yechimni Runge – Kutta usuli bilan quyidagicha topamiz.

$$x_i=x_{i-1}+h,\ (x_i=x_0,\ y_i=y_0)$$

$$k_1^{(i)}=hf(x_i,\ y_i),$$

$$k_2^{(i)}=hf(x_i+\frac{h}{2},\quad y_i+k_1^{(i)}/2),$$

$$k_3^{(i)}=hf(x_i+\frac{h}{2},\quad y_i+k_2^{(i)}/2), \qquad (6.8)$$

$$k_4^{(i)}=hf(x_i+h,\quad y_i+k_3^{(i)}/2),$$

$$\Delta y_i=(k_1^{(i)}+2k_2^{(i)}+2k_3^{(i)}+k_4^{(i)})/6,$$

$$y_{i+1}=y_i+\Delta y_i,\ i=0,1,2,...,n.$$

Bu *Runge–Kutta usuli* Koshi masalasining yechimni to'rtinchi darajali aniqlikda hisoblaydi. Bu (68) formulalar asosida hisoblab topilgah qiymatning aniqligini ortirish uchun h qadamni kichraytirish nbilan (6.8) formula bo'yicha qiymatni qayta hisoblaymiz va uni yechim qiymati uchun olamiz.

6.1–masalani Runge – Kutta usuli bilan yeching.

Yechish. Bu usulda tenglamaning yechimini topish uchun quyidagi hisoblash ketma–ketligini bajaramiz.

i=0 bo'lganda x_0 =1.8 y_0=2.6 larda yechimning birinchi qiymatini (6.8) formulaga asosan hisoblaymiz.

$k_1^0=hf(x_0,y_0)=0.1(x_0+cos(y_0/\sqrt{5})=0.1(1.8+cos(2.6/\sqrt{5})=0.21968119;$

k_2^0 $hf(x_0+h/2, y_0+ k_1^0/2)$=0.220126211;

k_3^0 $hf(x_0+h/2, y_0+ k_2^0/2)$=0.22116893;

k_4^0 $hf(x_0+h, y_0+ k_3^0)$=0.22046793;

$y_1=y_0+(k_1^0+ 2k_2^0+ 2k_3^0+ k_4^0)/ 6$=2.82010588.

Demak, berilgan tenglama yechimining birinchi qiymati

$$y_1=2.82010588$$

bo'ladi.

i=1, x_1=1.9, y_1=2.82010588 larda yechimning ikkinchi qiymatini topish uchun yuqoridagi qoidani quyidagicha qo'llaymiz:

$$k_1^1 = hf\left(x_1, y_1\right)$$

$0.1(x_1+cos(y_1/\sqrt{5})=0.1(1.9+cos(2.8201/\sqrt{5})=0.21968119;$

$$k_2^1 = hf\left(x_1 + h/2,\ y_1 + \ k_1^1/2\right) = 0.220126211;$$

$$k_3^1 = hf\left(x_1 + h/2,\ y_1 + \ k_2^1/2\right) = 0.220116893;$$

$$k_4^1 = hf\left(x_1 + h,\ y_1 + k_3^1\right) = 0.220467930;$$

$$y_2 = y_1 + \left(k_1^1 + \ 2k_2^1 + \ 2k_3^1 + \ k_4^1\right)/6 = 3.04021177.$$

$$y_2=3.04021177$$

Shuningdek, i=2,3,...,10 lar uchun tenglama yechimini qolgan qiymatlarini topamiz.

y_3=3.2603y_4=3.4804

y_5=3.7005y_6=3.9206

y_7=4.1407y_8=4.3608

y_9=4.5931y_{10}=4.9172

Runge–Kutta usulida topiladigan yechimning qiymatlarini ketma–ket hisoblashning Maple dasturini quyidagicha tuzamiz (6.2–masala uchun).

6.3a–M a p l e d a s t u r i:

```
> restart;
> f:=(x,y)–>cos(y(x)/sqrt(5))+x;
```

$$f := (x, y) \to \cos\left(\frac{y(x)}{\sqrt{5}}\right) + x$$

```
> dsol1:=diff(y(x),x)=f(x,y);
```

$$dsol1 := \frac{d}{dx} y(x) = \cos\left(\frac{1}{5} y(x) \sqrt{5}\right) + x$$

```
> k1:=(x,y)->h*f(x,y);
```

$$k1 := (x, y) \to h\, f(x, y)$$

```
> k2:=(x,y)->h*f(x+h/2,y+k1(x,y)/2);
```

$$k2 := (x, y) \to h\, f\left(x + \frac{1}{2} h, y + \frac{1}{2} k1(x, y)\right)$$

```
> k3:=(x,y)->h*f(x+h/2,y+k2(x,y)/2);
```

$$k3 := (x, y) \to h\, f\left(x + \frac{1}{2} h, y + \frac{1}{2} k2(x, y)\right)$$

```
> k4:=(x,y)->h*f(x+h,y+k3(x,y));
```

$$k4 := (x, y) \to h\, f(x + h, y + k3(x, y))$$

```
> h:=0.1:x:=1.8:y:=2.6:
> k1:=evalf(k1(x,y));
```

$k1 := 0.219681190$

```
> k2:=evalf(k2(x,y));
```

$k2 := 0.220126211$

```
> k3:=evalf(k3(x,y));
```

$k3 := 0.220116893$

```
> k4:=evalf(k4(x,y));
```

$k4 := 0.220467930$

```
> y1:=y+(k1+2*k2+2*k3+k4)/6;
```

$y1 := 2.82010588$

```
> x:=1.9:y:=y1:
> k1;
```

0.219681190

```
> k2;
```

0.220126211

```
> k3;
```

0.220116893

```
> k4;
```

0.220467930

```
> y2:=y+(k1+2*k2+2*k3+k4)/6;
```

$y2 := 3.04021177$

```
> x:=2.0:y:=y2:y3:=y+(k1+2*k2+2*k3+k4)/6;
```

$y3 := 3.26031766$

```
> x:=2.1:y:=y3:y4:=y+(k1+2*k2+2*k3+k4)/6;
```

$y4 := 3.48042355$

```
> x:=2.2:y:=y4:y5:=y+(k1+2*k2+2*k3+k4)/6;
```

$y5 := 3.70052944$

```
> x:=2.3:y:=y5:y6:=y+(k1+2*k2+2*k3+k4)/6;
```

$y6 := 3.92063533$

```
> x:=2.4:y:=y6:y7:=y+(k1+2*k2+2*k3+k4)/6;
```

$y7 := 4.14074122$

```
> x:=2.5:y:=y7:y8:=y+(k1+2*k2+2*k3+k4)/6;
```

$y8 := 4.36084711$

```
> x:=2.6:y:=y8:y9:=y+(k1+2*k2+2*k3+k4)/6;
```

$y9 := 4.58095300$

```
> x:=2.7:y:=y8:y9:=y+(k1+2*k2+2*k3+k4)/6;
```

$y9 := 4.58095300$

```
> x:=2.8:y:=y9:y10:=y+(k1+2*k2+2*k3+k4)/6;
```

$y10 := 4.80105889$

method=rkf45 funksiyasida hisoblashning Maple dasturini quyidagicha tuzamiz (6.2–masala uchun).

\6.3b–M a p l e d a s t u r i:

> restart;

> dsol1 := diff(y(x),x) = cos(y(x)/sqrt(5)) + x;

$$dsol1 := \frac{d}{dx}\,y(x) = \cos\left(\frac{1}{5}\,y(x)\,\sqrt{5}\right) + x$$

> init1 := y(1.8)=2.6;

$$init1 := y(1.8) = 2.6$$

> Yechim:= dsolve({dsol1, init1}, numeric, method=rkf45,output=procedurelist):

> Yechim(2.1); $[x = 2.1, y(x) = 3.26190171988390880]$

> Yechim(2.2); $[x = 2.2, y(x) = 3.48315051875561640]$

> Yechim(2.3); $[x = 2.3, y(x) = 3.70451100671142080]$

> Yechim(2.4); $[x = 2.4, y(x) = 3.92601463954131970]$

6.1–laboratoriya ishi

bo‘yicha mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

Quyidagi birinchi tartibli differietsial tenglamalar uchun Koshi masalasinining taqribiy yechimini h=0.1 qadam bilan Eyler va Runge–Kutta usullarida toping.

1) $ó' = x/(x+y)$, y(0)=1,[0,1].

2) $ó' - 2ó = 3\grave{a}^{õ}$, y(0,3)=1,415.[0,1;0,5].

3) $ó' = x + y^2$,y(0)=0, [0;0,3].

4) $y'=y^2-x^2$,y(0)=1, [1;2].

5) $y'=x^2+y^2$,y(0)=0.27, [0;1].

6) $y'+xy(1-y^2)=0$,y(0)=0.5,[0;1].

7) $y'=x^2-xy+y^2$,y(0)=0.1, [0;1].

8) $y'=(2y-x)/y$,y(0)=2, [1;2].

9) $y'=x^2+xy+y^2+1$,y(0)=0,[0;1].

10) $y'+y=x^2$,y(0)=-1, [1;2].

11) $y'=xy+e^y$,y(0)=0, [0;0.1].

12) $y'=2xy+x^2$,y(0)=0, [0;0.5].

13) $y'=e^x-y^2$,y(0)=0, [0;0.4].

14) $y'=x+\sin\frac{y}{3}$,y(0)=1, [0;1].

15) $y'=2x+\cos y$, y(0)=0, [0;0.1].
16) $y'=x^3+y^2$, y(0)=0.5, [0;0.5].
17) $y'=xy^3-y$, y(0)=1, [0;1].
18) $y'=y^2e^x-2y$, y(0)=1, [0;1].
19) $y'=\dfrac{1}{y^2-x}$, y(0)=0, [1;2].
20) $y'=\dfrac{x^2+1}{e^x}$ y(0)=1, [1;2].
21) $y'=e^x\cos y/x$ y(0)=1, [1;2].
22) $y'=e^x\sin y/x$, y(0)=1 , [1;2].
23) $y'\cos x-y\sin x=2x$, y(0)=0, [0;1].
24) $y'=y\,\mathrm{tg}x-\dfrac{1}{\cos^3 x}$, y(0)=0, [0;1].
25) $y'+y\cos x=\cos x$, y(0)=0, [0;1].
26) $y'=\dfrac{y}{x}+tg\dfrac{x}{y}$, y(0)=0, [0;1].
27) $y'=(1+\dfrac{y-1}{2x})^2$ y(0)=1, [1;2].
28) $xy'-\dfrac{y}{x+1}-x=0$, y(0)=1/2, [1;2].
29) $y'=\dfrac{y}{x}(1+\ln y-\ln x)$, y(0)=$e$, [1;2].
30) $y^3xdx=(x^2y+2)dy$, y(0.348)=2, [0;1].

6.3. Birinchi tartibli differensial tneglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini taqribiy yechish

Maqsad: Birinchi tartibli differensial tneglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini taqribiy yechishda Eyler va Runge–Kutta usulini qo'llashni o'rganish.

Reja: 6.3.1. Eyler usuli.
6.3.2. Runge–Kutta usuli.

6.3.1. Eyler usuli

Quyidagi

$$y'=f_1(x,y,z),\quad z'=f_2(x,y,z,) \qquad (6.9)$$

birinchi tartibli diffirintsial tenglamalar sistemasiga qo‘yilgan

$$y(x_0)=y_0,\ z(x_0)=z_0 \qquad (6.10)$$

boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi $[a,b]$ oraliqdagi yechimning qiymatlarini topish uchun Eyler usulini qo‘llaymiz.

(6.9) sistemasining $[a,b]$ oraliqdagi yechimini topish uchun oraliqni bo‘linish nuqtalari

$$x_i=x_0+ih\ ,\ i=0,1,2,\ldots,n$$

ni topib, har bir tenglama uchun Eyler usulini qo‘llaymiz.

$$y_{i+1}=y_i+hf_1(x_i,\,y_i,\,z_i), \qquad (6.11)$$

$$z_{i+1}=z_i+hf_1(x_i,\,y_i,\,z_i),$$

Natijada differensial tenglamalar sistemasi yechimining taqribiy qiymatini topamiz.

$$y(x_i)=y_i z(x_i)=z_i i=1,2,3,\ldots,n$$

Quyidagi 6.2–masalada berilgan ikkinchi tartibli differensial tenglamani birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasiga keltirib yechimini topishni ko‘rsatamiz.

6.2–masala. Quyidagi

$$y''+y'/x+y=0$$

differensial tenglamani

$$y(1)=0.77,\ y'(1)=-0.44$$

boshlang‘ich shartlarini qanoatlantiruvchi $[1,1.5]$ oraliqdagi yechimi $h=0.1$ qadam bilan, Eyler usulida topilsin.

Yechish. Berilgan differensial tenglamada

$$y'=z,\quad y''=z'$$

almashtirish qilib. quyidagi birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasiga o‘taamiz:

$$\begin{cases} y'=z \\ z'=-z/x-y \end{cases} \qquad (6.12)$$

va boshlangich shartlari esa

$$y(1)=0.77,\ z(1)=-0.44$$

kabi yoziladi

Bu holda (6.9) differensial tenglamalar sistemasiga asosan (6.12) dan.

$$\begin{cases} f_1(x,y,z)=z=0.x+0.y+z \\ f_2(x,y,z)=-z/x-y \end{cases} \qquad (*)$$

Endi hosil bulgan (*) differensial tenglamalar sistemaning yechimini Eyler usulida topish uchun quyidagi formulalar

$x_i = x_0 + ih;$

$y_{i+1} = y_i + hf_1(x_i, y_i, z_i);$

$z_{i+1} = z_i + hf_2(x_i, y_i, z_i);$

$i = 0, 1, 2, 3, ...$

bo'yicha quyidagilarni topamiz . Bu (*) tenglamalar sistemasi bo'yicha $x \neq 0$ b olganligi uchun $x_0 = 1$ deb olamiz:

$i=1,\ x_0=1.05,\ y_0=0.77,\ z_0=-0.44;$

$y_1 = y_0 + hf_1(x_0, y_0, z_0) = 0.77 + 0.05(z_0) = 0.748;$

$z_1 = z_0 + hf_2(x_0, y_0, z_0) = -0.44 + 0.05(-z_0/x_0 - y_0) = -0.455.$

$i=2,\ x_1=1.1,\ y_1=0.748,\ z_1=-0.455;$

$y_2 = y_1 + hf_1(x_1, y_1, z_1) = 0.748 + 0.05(-0.455) = 0.725;$

$z_2 = z_1 + hf_2(x_1, y_1, z_1) = -0.455 + 0.05(-0.455/1.1 - 0.748) = -0.470.$

Bu qoidani ketma–ket takrorlab tenglamalar sistemasi yechimining i=3,4,5 –qiymatlarini hisoblab quyidagilarni topamiz:

$y_3=0.702,\ z_3=-0.484,$

$y_4=0.678,\ z_4=-0.497,$

$y_5=0.658,\ z_5=-0.508,$

... ...

Differensial tenglamalar sistemasiga qo'yilgan Koshi masalasi yechimini Eyler usuli bilan topishning Maple dasturini beramiz.

6.4–Maple dasturi:

```
> restart;
> dsys1:= {diff(y(x),x$1) = z(x),
   diff(z(x),x$1) = -z(x)/x--y(x),
   y(1) = 0.77, z(1) =-0.44};
```

$$dsys1 := \left\{ y(1) = 0.77, z(1) = -.44, \frac{d}{dx} y(x) = z(x), \frac{d}{dx} z(x) = -\frac{z(x)}{x} - y(x) \right\}$$

```
> dsol1:=dsolve(dsys1,numeric,output=listprocedure, range=1..2):
dsol1y:=subs(dsol1,y(x)):dsol1z:=subs(dsol1,z(x)):
> x:=1: dsol1y(x); dsol1z(x);
```

0.7700000000000 −.4400000000000

```
> evalf(%,5);
```
−.44000

```
> x:=1.1: dsol1y(x); dsol1z(x);
                    0.72440588864249377  -.47131428119912977
> x:=1.2: dsol1y(x); dsol1z(x);
                    0.67585396492172311  -.49912232422644037
> x:=1.3: dsol1y(x); dsol1z(x);
                    0.62470438546504592  -.52324177713315045
> x:=1.4: dsol1y(x); dsol1z(x);
                    0.57133371285022815  -.54351796896649318
> x:=1.5: dsol1y(x); dsol1z(x);
                    0.51613302363497881  -.55982688296188198
```

6.3.2. Runge – Kutta usuli

Berilgan (6.9) differentsial tenglamalar sistemasini taqribiy yechimini topish uchun Runge-Kutta usulini sistemaning har bir tenglamasi uchun ko‘llaymiz.

$$
\begin{aligned}
&k_{1y}=hf_1(x_i,y_i,z_i),\\
&k_{1z}=hf_2(x_i,y_i,z_i),\\
&k_{2y}=hf_1(x_i+h/2,y_i+k_{1y}/2,z_i+k_{1z}/2),\\
&k_{2z}=hf_2(x_i+h/2,y_i+k_{1y}/2,z_i+k_{1z}/2);\\
&k_{3y}=hf_1(x_i+h/2,y_i+k_{2y}/2,z_i+k_{2z}/2),\\
&k_{3z}=hf_2(x_i+h/2,y_i+k_{2y}/2,z_i+k_{2z}/2);\\
&k_{4y}=hf_1(x_i+h,y_i+k_{3y},z_i+k_{3z}),\\
&k_{4z}=hf_2(x_i+h,y_i+k_{3y},z_i+k_{3z});\\
&y_{i+1}=y_i+(k_{1y}+2k_{2y}+2k_{3y}+k_{4y})/6,\\
&z_{i+1}=z_i+(k_{1z}+2k_{2z}+2k_{3z}+k_{4z})/6;\\
&x_i=x_0+ih\ ;\ i=0,1,2,3,\ldots,n.
\end{aligned}
\tag{6.13}
$$

Bu qoida bilan tenglamalar sistemasini yechishda i=1,2,…,n lar uchun yuqoridagi usulni ketma-ket takrorlab sistema yechimining taqribiy qiymatlarini topamiz:

$$y_{i+1}\ ;\ z_{i+1};\ i=0,1,2,\ldots,n$$

Runge –Kutta usuli bilan yechim 0.001 aniqlikda topiladi.

6.2–masalani Runge – Kutta usulida yechish. Bu qoida bilan (6.12) sistemaning yechimni topish uchun (6.13) formulaga asosan:

$x_0=1.0$, $y_0=0.77$, $z_0=-0.44$, $i=0$ bo‘lganda:

$$k_{1y}=hf_1\left(x_0,y_0,z_0\right)=0.1(z_0)=0.044$$

$$k_{1z}=hf_2\left(x_0,y_0,z_0\right)=0.1(-z_0\,/\,x_0-y_0)=-0.0726$$

$$k_{2y}=hf_1\left(x_0+h/2,y_0+k_{1y}/2\ ,z_0+k_{1z}/2\right)=0.1f_1\left(0.05,0.55\ ,-0.4565\right)=$$
$$=0.1(-0.44-0.0126/2)=-0.04763$$

$$k_{2z}=hf_2\left(x_0+h/2,y_0+k_{1y}/2\ ,z_0+k_{1z}/2\right)=0.1f_1\left(0.05,0.55\ ,-0.4565\right)=$$
$$=0.1(0.4565/1.05-0.55)=0.0115$$

$$k_{3z}=hf_2\left(x_0+h/2,y_0+k_{2y}/2\ ,z_0+k_{2z}/2\right)=0.1f_2\left(0.05,0.7462,-0.4457\right)=$$
$$=0.1\left(0.4457/1.05-0.7462\right)=\ -0.03217$$

$$k_{4y}=hf_1\left(x_0+h,y_0+k_{3y}\ ,z_0+k_{3z}\right)0.1f_1\left(0.1;\ 0.72543;\ -0.47217\right)=$$
$$=0.1\left(-0.47217\right)=-0.047217$$

$$k_{4z}=hf_2\left(x_i+h,y_i+k_{3y}\ ,z_i+k_{3z}\right)=0.1f_2\left(0.1,\ 0.72543,-0.47217\right)=$$
$$=0.1\left(0.47217/1.1-0.72543\right)=\ -0.029618$$

$$y_1=y_0+\left(k_{1y}+2k_{2y}+2k_{3y}+k_{4y}\right)/6=$$
$$=0.77+\left(-0.044-2\cdot0.0476-2\cdot0.04457-0.472\right)/6=$$
$$=0.77-0.02288=0.747$$

$$z_1=z_0+\left(k_{1z}+2k_{2z}+2k_{3z}+k_{4z}\right)/6=$$
$$=-0.44+\left(-0.033-2\left(0.0115+0.03217\right)-0.029618\right)/6=$$
$$=-0.44-0.024993=-0.464993$$

Demak berilgan differentsial tenglamalar sistemasi yechimining birinchi qiymatlari y_1=0.747, z_1=–0.4649 bo‘lar ekan.

Yechimni keyingi qiymatlarini topish uchun i=1 bo‘lganda x_1=1.1; y_1=0.747; z_1=–0.4649 lar uchun yuqoridagi qoidani takrorlab y_2; z_2 larni topamiz va x.k.

Hisob $n=(b-a)/h=(1.5-1)/0.1=5$ bo‘lganidan, i=5 gacha davom etadi.

Differentsial tenglamalar sistemasiga qo‘yilgan Koshi masalasi (9.3–masala) yechimini Runge – Kutta usuli bilan topishning Maple dasturi.

6.5–M a p l e d a s t u r i:

1.*Masalani qo‘yilishi*:

> diff(y(x),x$1)= z(x),
diff(z(x),x$1)=–z(x)/x–y(x);

$$dsys1:=\frac{d}{dx}y(x)=z(x),\ \frac{d}{dx}z(x)=\mathrm{K}\ \frac{z(x)}{x}\ \mathrm{K}\ y(x)$$

> init1 := y(1) = 0.77, z(1) =–0.44;

$$init1:=y(1)=0.77,\ z(1)=\mathrm{K}\ .44$$

2.*Masalani ychilishi:*

```
1)> dsol1 := dsolve(dsys1,numeric,
output=listprocedure,range=1..2):
dsol1y:= subs(dsol1,y(x)):
dsol1z:= subs(dsol1,z(x)):
> evalf(dsol1y(1),5), evalf(dsol1z(1),5);
```

$$0.77000, -.44000$$

```
> evalf(dsol1y(1.1),5), evalf(dsol1z(1.1),5);
```

$$0.72441, -.47131$$

```
> evalf(dsol1y(1.2),5), evalf(dsol1z(1.2),5);
```

$$0.67585, -.49912$$

```
> evalf(dsol1y(1.3),5), evalf(dsol1z(1.3),5);
```

$$0.62470, -.52324$$

```
> evalf(dsol1y(1.4),5), evalf(dsol1z(1.4),5);
```

$$0.57133, -.54352$$

```
> evalf(dsol1y(1.5),5), evalf(dsol1z(1.5),5);
```

$$0.51613, -.55983$$

```
2)> dsol2 := dsolve(dsys1, numeric, method=rkf45,
 output=procedurelist):
> evalf(dsol2(1),5);
```

$$[x = 1., y(x) = 0.77000, z(x) = -.44000]$$

```
> evalf(dsol2(1.2),5);
```

$$[x = 1.2, y(x) = 0.67585, z(x) = -.49912]$$

```
> evalf(dsol2(1.3),5);
```

$$[x = 1.3, y(x) = 0.62470, z(x) = -.52324]$$

```
> evalf(dsol2(1.4),5);
```

$$[x = 1.4, y(x) = 0.57133, z(x) = -.54352]$$

```
> evalf(dsol2(1.5),5);
```

$$[x = 1.5, y(x) = 0.51613, z(x) = -.55983]$$

O'z–o'zini tekshirish uchun savollar

1. Birinchi tartibli oddiy, differentsial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining taqribiy yechimi Eyler usuli yordamida qanday topiladi?

2. Birinchi tartibli oddiy, differentsial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining taqribiy yechimi Runge–Kutta usuli yordamida qanday topiladi?

2. Taqribiy yechim xatoligini baholashni tushintirib byering.

3. Yuqori tartibli differentsial tenglama yoki tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining taqribiy yechimi uchun yaqinlashishlarni hisoblash formulalarini yozing.

4. Rung-Kut usuli bilan tenglamaga kuyilgan Koshi masalasining taqribiy yechimi uchun yakinlashishlar qaysi formulalar yordamida xisoblanadi?

5.Taqribiy yechim xatoligini baholashning takroriy hisoblash qoidasini tushintirib bering.

6. Yuqori tartibli differentsial tenglama yoki tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining taqribiy yechimi uchun yaqinlashishlarni Eyler usulida hisoblash formulalarini yozing.

6.2-laboratoriya ishi bo'yicha mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1.Quyidagi birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini Eyler usulida taqribiy yechimini toping.

1. $\begin{cases} y' = \cos(y + 2z) + 3, \\ z' = 2/(x + 3x^2) + y + x, \end{cases}$ $y(0)=1,\ z(0)=0.05$

2. $\begin{cases} x' = \sin(2x^2) + t + y \\ y' = t + x\text{-}3y^2 + 1 \end{cases}$ $x(0)=1,\ y(0)=0.5$

3. $\begin{cases} x' = \sqrt{(t^2 + 2x^2)} + y \\ y' = \cos(3y + x), \end{cases}$ $x0)=0.5,\ y(0)=1$

4. $\begin{cases} x' = \ln(6t + \sqrt{2t^2 + y^2}) \\ y' = (2t^2 + x^2) \end{cases}$ $x(0)=1, y(0)=0.5$

5. $\begin{cases} x' = e^{-(x^2 + y^2)} + 0.15t \\ y' = 6x^2 + y \end{cases}$ $x(0)=0.5, y(0)=1$

6. $\begin{cases} y' = z/x + \sqrt{(x + y)} \\ x' = 2z^2/(x(y\text{-}1)) + z/x \end{cases}$ $x(0)=1/3,\ y(0)=0$

7. $\begin{cases} y' = (z\text{-}y)x \\ z' = (z + y)x, \end{cases}$ $y(0)=1,\ \ z(0)=1$

8. $\begin{cases} y' = \cos(y+2z)+2 \\ z' = 2/(x+2y^2)+x+1 \end{cases}$ $y(0)=1,\ z(0)=1$

9. $\begin{cases} y' = e^{-(y^2+z^2)}+2x \\ z' = 2y^2+z, \end{cases}$ $y(0)=0.5,\ z(0)=1$

10. $\begin{cases} y' = y+2z-\sin z^2 \\ z' = -y-3z+x(e^{(x^2/2)}-1) \end{cases}$ $y(0)=0,\ z(0)=0$

11. $\begin{cases} y' = -z+xy \\ z' = z^2/y \end{cases}$ $y(0)=1,\ z(0)=-0.5$

12. $\begin{cases} y' = (z-1)/z \\ z' = 1/(y-x), \end{cases}$ $y(0)=-1,\ z(0)=1$

13. $\begin{cases} y' = 2xy/(x^2-y^2-z^2) \\ z' = 2xz/(x^2-y^2-z^2), \end{cases}$ $y(0)=2,\ z(0)=1$

14. $\begin{cases} y' = z/(z-y)^2 \\ z' = y/(z-y)^2 \end{cases}$ $y(0)=1,\ z(0)=2$

15. $\begin{cases} y' = -y/x+xz \\ z' = -2y/x^3+z/x \end{cases}$ $y(0)=1,\ z(0)=2$

16. $\begin{cases} dx/dt = x-2y \\ dy/dt = x-y, \end{cases}$ $x(0)=1,\ z(0)=1$

17. $\begin{cases} dy/dx = z-y \\ dz/dx = -y-z \end{cases}$ $y(0)=2.23,\ z(0)=1.05$

18. $\begin{cases} dy/dx = 1-1/z \\ dz/dx = 1/(y-x) \end{cases}$ $y(0)=2.12,\ z(0)=1.13$

19. $\begin{cases} dy/dx = x/yz \\ dz/dx = x/y^2 \end{cases}$ $y(0)=1,\ z(0)=2$

20. $\begin{cases} dy/dx = -z \\ dz/dx+4y = 0, \end{cases}$ $y(0)=1.2,\ z(0)=-2$

21. $\begin{cases} y' = z/x \\ z' = 2z^2/(x(y\text{-}1) + z/x) \end{cases}$ $y(0)=0,\ z(0)=1/3$

22. $\begin{cases} y' = (z\text{-}y)x \\ z' = (z + y)x \end{cases}$ $y(0)=1 z(0)=1$

23. $\begin{cases} y' = cos\,(y + 2z) + 2 \\ z' = 2/(x + 2y^2) + x + 1 \end{cases}$ $y(0)=1,\ z(0)=0.05$

24. $\begin{cases} y' = e^{-(y^2+z^2)} + 2x \\ z' = 2y^2 + z \end{cases}$ $y(0)=0.5,\ z(0)=1$

25. $\begin{cases} y' = (z\text{-}y)y \\ z' = (z + y)z \end{cases}$ $y(0)=1.05\quad z(0)=2$

2. Quydagi ikkinchi tartibli differensial tenglamalar uchun Koshi masalasining yechimini topishda, ikkinchi tartibli differensial tenglamani birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasiga keltirib Eyler usulida taqribiy yechimini toping.

T/p	**Tenglama**	**$y(0)$**	**$y'(0)$**	**oraliq**	**qadam**
1	$y''=1/cosx-y$	1	0	[0,0.5]	0.1
2	$(1+x^2)y''+(y')^2+1=0$	1	1	[0,0.5]	0.05
3	$y''+2y'+2y=2e^{-x}cosx$	1	0	[0,0.5]	0.05
4	$y''+4y=e^{3x}(13x-7)$	0	–1	[0,1]	0.1
5	$y''+4y'+4y=0$	1	–1	[0,1]	0.1
6	$y''-y=sinx+cos3x$	1.8	–0.5	[0,2]	0.2
7	$y''-3y'=e^{5x}$	2.2	0.8	[0,02]	.02
8	$y''+y=cosx$	0.8	2	[0,1]	0.8
9	$y''-y'-6y=2e^{4x}$	1.433	0.367	[0,1]	0.1
10	$y-2y'+y=5xe^x$	1	2	[0,1]	0.1
11	$y''+y'-6y=3x^2-x$	–0.9	3.2	[0,1]	0.1
12	$8y''+2y'-3y=x+5$	1/9	–7/12	[0,1]	0.1
13	$y''-4y'+5y=3x$	1.48	3.6	[0,0.5]	0.05
14	$y''-5y'+6y=e^x$	0	0	[0,0.2]	0.02
15	$y''-3y'+2y=x^2+3x$	5.1	4.2	[0,1]	0.1
16	$y''+(1/x)y'-(1/x)y=8x$	4	4	[1, 1.5]	0.05
17	$x^2y''+xy'=0$	5	–1	[1, 1.5]	0.05

18	$y''-2y'+y=xe^x$	1	2	[0,05]	0.05
19	$y''-3y'+2y=2sinx$	2	3.2	[0,1]	0.1
20	$x^2y''+2.5y'x-y=0$	2	3.5	[0,1]	0.1
21	$4xy''+2y'+y=0$	1.3817	–0.1505	[1,2]	0.1
22	$x^2y''-4xy'+6y=2$	1.43	2.3,	[1,2]	0.1
23	$y''-y=e^{-2x}(x-1)$	11/9	–11/9	[0,1]	0.1
24	$y''-3y'-2y=cos2x$	1.95	2.7	[0,05]	0.05
25	$y''-0.5y'-0.5y=3e^{x\ 2}$	–4	–2.5	[0,1]	0.1
26	$y''+4y'=sinx+sin2x$	1	–23/12	[0,1]	0.1
27	$y''+y=x^2-x+2$	1	0	[0,1]	0.1
28	$x^2y''-2y=0$	5/6	2/3	[1,2]	0.1
29	$y''+4y'+4y=2x-3$	–1/4,	–1/2	[0,05]	0.05
30	$y''+y=x^2-x+2$	1	0	[0,1]	0.1

7-LABORATORIYA ISHI

Xususiy hosilali differensial tenglamalarni taqribiy yechimini topish

Maple dasturining buyruqlari:

> u:=array(1..6,1..6)– yechimi funksiya matritsasining o'lchami

> for i to n do for j to m+1 do x:=a+(j–1)*h;

u[n+1,j]:=fAD(x); u[1,j]:=fBC(x); od; od; evalm(u)– yechimi funksiyasining chegaraviy shartlar bo'yicha qiymatlarini hisoblash;

> with(linalg):transpose(UN) –yechimi funksiya matritsasini transponirlash.

Maqsad: Xususiy hosilali differensial tenglamalarni taqribiy yechimini topishni o'rganish.

Reja: 7.1. Chekli ayirmalar yoki to'r usuli.

7.2. Elliptik turdagi tenglamaga qo'yilgan Dirixle masalasi uchun to'r usuli.

7.1. Chekli ayirmalar yoki to'r usuli

Chekli ayirmalar usuli xususiy hosilali tenglamalarning sonli yechimini topishda eng qulay usullardan biridir.

Biz quyida eng sodda xususiy hosilali tenglamalar uchun qo 'yilga aralash masalalarni to'r usulida taqribiy yechimini topishni o 'rganamiz.

Bu usul asosida xususiy hosilalarni chekli ayirmalar nisbati bilan almashtirish qoidasi yotadi.



7.1-rasm.

Aytaylik, Oxy koordinatalar tekisligida G chiziq bilan chegaralangan yopiq D soha berilgan bo'lsin. D sohani kesib o'tuvchi o'qlarga parallel bo'lgan to'g'ri chiziqlar oilasini quramiz :

$$x_i = x_0 + ih,$$
$$i = 0, \pm 1, \pm 2, \ldots$$
$$y_i = y_i + kh$$
$$k = 0, \pm 1, \pm 2, \ldots$$

Bu to'g'ri chiziqlarning kesishishidan hosil bo'lgan to'rdagi nuqtalarni *tugunlar* deb ataladi. Hosil bo'lgan to'rda Ox yoki Oy koordinata o'qlari yo'nalishida h yoki l masofada joylashgan ikki tugunni *qo'shni tugun* deb ataladi.

$D+G$ sohaga tegishli bo'lgan va sohaning chegarasi G dan, bir qadamdan kichik masofada turgan tugunlarni ajratamiz.

Sohaning biror tuguni va unga qo‘shni bo‘lgan to‘rtta tugun, ajratilgan tugunlar to‘plamiga tegishli bo‘lsa, bundiy tugunlarni *ichki tugunlar* deb ataladi. (7.1–rasm, *A* tugun). Ajratilganndan qolganlari *chegara tugunlari* deb ataladi(7.1–rasm, *B*, *C* tugunlar).

To‘rning tugunlaridagi тoma’lum $u = u(x, y)$ funksiyaning qiymatini

$u_{ik} = u(x_0 + ih, y_0 + kl)$ kabi belgilaymiz. Har bir $(x_0 + ih, y_0 + kl)$ ichki nuqtalardagi xususiy hosilalarni chekli ayirmalar nisbati bilan quyidagicha almashtiramiz:

$$\left(\frac{\partial u}{\partial x}\right)_{ik} \approx \frac{u_{i+1,k} - u_{i-1,k}}{2h}$$
$$\left(\frac{\partial u}{\partial y}\right)_{ik} \approx \frac{u_{i,k+1} - u_{i,k-1}}{2l} \qquad (7.1)$$

Chegaraviy nuqtalarda esa aniqligi kamroq bo‘lgan quyidagi formular bilan almashtiramiz:

$$\left(\frac{\partial u}{\partial x}\right)_{ik} \approx \frac{u_{i+1,k} - u_{ik}}{h}$$
$$\left(\frac{\partial u}{\partial y}\right)_{ik} \approx \frac{u_{ik,k+1} - u_{ik}}{l} \qquad (7.2)$$

Xuddi shuningdek, ikkinchi tartibli xususiy hosilarni quyidagicha almashtpramiz:

$$\left(\frac{\partial^2 u}{\partial x}\right)_{ik} \approx \frac{u_{i+1,k} - 2u_{ik} + u_{i-1,k}}{h^2}$$
$$\left(\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}\right)_{ik} \approx \frac{u_{i,k+1} - 2u_{ik} + u_{i,k-1}}{l^2} \qquad (7.3)$$

Yuqorida ketirilgan almatiririshlar xususiy hosilali tenglamalarning o‘rniga chekli ayrimali tenglamalar sistemasini yechishga olib keladi.

7.2. Elliptik tipdagi tenglamaga qo‘yilgan Dirixle masalasi uchun to‘r usuli.

Birinchi chegaraviy masala yoki *Puasson tenglamasi*:

$$\Delta u = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} = f(x, y) \qquad (7.4)$$

uchun *Dirixle masalasi* quyidagicha qo‘yiladi. (7.4) tenglamani va *D* sohaning ichki nuqtalarida va uning *G*– chegarasida esa

$$u|_G = \varphi(x,y)$$

shartni qanoatlantiruvchi $u=u(x,y)$ funksiya topilsin.

Mos ravishda x va y o'qlarida h va l qadamlarni tanlab,

$$x_i = x_0 + ih, \quad (i = 0, \pm 1, \pm 2, ...)$$

$$y_k = y_0 + kl, \quad (k = 0, \pm 1, \pm 2, ...)$$

to'g'ri chiziqlar yordamida to'r quramiz va sohaning ichki tugunlaridagi

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, \frac{\partial^2 u}{\partial y^2}$$

hosilarni (7.3) formula asosida almashtirib (6.4) tenglamani quyidagi chekli ayirmali tenglamalar ko'rinishga keltiramiz:

$$\frac{u_{i+1,k} - 2u_{ik} + u_{i-1,k}}{h^2} + \frac{u_{i,k+1} - 2u_{ik} + u_{i,k-1}}{l^2} = f_{ik} \qquad (7.5)$$

bu yerda $f_{ik} = f(x_i, y_k)$ (7.5) tenglama sohaning chegaraviy nuqtalaridagi u_{ik} qiymatlari bilan birgalikda (x_i, y_k) tugunlaridagi $u(x,y)$ funksiya qiymatlariga nisbatan chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini hosil qiladi . Bu sistema to'g'ri to'rtburchakli sohada va $l=k$ bulganda eng sodda ko'rinishga keladi Bu holda (7.5) tenglama quyidagicha yoziladi.

$$u_{i+1,k} + u_{i-1,k} + u_{i,k+1} + u_{i,k-1} - 4u_{ik} = h^2 f_{ik} \qquad (7.6)$$

Chegaraviy tugunlardagi qiymatlar esa chegaraviy funksiya qiymatlariga teng bo'ladi. Agar (7.4) tenglamada $f(x,y)=0$ bo'lsa,

$$\Delta u = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} = 0$$

Laplas tenglamasi hosil bo'ladi. Bu tenglamaning chekli ayirmalar tenglamasi quyidagicha:

$$u_{i,k} = \frac{1}{4}(u_{i+1,k} + u_{i-1,k} + u_{i,k+1} + u_{i,k-1}) \qquad (7.7)$$

Bu (7.6) va (7.7) tenglamalarni 7.2–rasmdagi tugunlar siemasidan foydaniladi. Bundan buyon rasmlardarda $(x_i;y_j)$ tugunlarni ularning indekslari bilan almashtirib yozamiz.



7.2–rasm.



7.3–rasm.

Ba'zan 7.3–rasmdagi kabi tugunlar sxemasidan foydalanish qulay bo'ladi. Bu holda chekli ayrimalar bo'yicha Laplas tenglamasi quydagicha yoziladi.

$$u_{i,k} = \frac{1}{4}(u_{i-1,k-1} + u_{i+1,k-1} + u_{i-1,k+1} + u_{i+1,k+1}) \qquad (7.8)$$

(7.4) tenglamasi uchun esa:

$$u_{i,k} = \frac{1}{4}(u_{i-1,k-1} + u_{i+1,k-1} + u_{i-1,k+1} + u_{i+1,k+1}) + \frac{h^2}{2} f_{i,k} \qquad (7.9)$$

Differensial tenglamalarni chekli ayrimalar bilan almatirish xatoligi ya'ni (7.6) tenglama uchun qoldiq xad $R_{i,k}$ quyidagicha baholanadi.

$$R_{i,k} < \frac{h^2}{6} M_4$$

bu yerda

$$M_4 = \max_G \left\{ \frac{\partial^4 u}{\partial x^4}, \frac{\partial^4 u}{\partial y^4} \right\} \qquad (7.10)$$

Ayrimalar usuli bilan topilgan taqribiy yechim xatoligi uchta xatoligidan kelib chiqadi:

1) differensial tenglamalarni ayrimalar bilan almashtirishdan;
2) chegaraviy shartni approksimasiya qilishdan;
3) hosil bo'lgan ayrimali tenglamalarni taqribiy yechishlardan.

7.1–masala. Quyidagi Laplas tenglamasi

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} = 0$$

uchun uchlari $A(0;0)$, $B(0;1)$, $C(1;1)$, $D(1;0)$ nuqtalarda bo'lgan kvadratga Dirixle masalasi shartlari:

$$u\big|_{AB} = 45y(1-y); \quad u\big|_{BC} = 25x; \quad u\big|_{CD} = 25; \quad u\big|_{AD} = 25x\sin\frac{\pi x}{2};$$

bo‘lganda, h=0.2 qadam bilan to‘r usulida yechimini 0.01 aniqlikda toping .

Yechish: 1. Yechim sohasini h=0.2 qadam bilan kataklarga ajratamiz va sohaning chegara(7.4–rasm) nuqtalarida (7.10) ga asosan noma'lum $u(x,y)$ funksiya qiymatlarini hisoblaymiz.



7.4–rasm.



7.5–rasm.

$u(x,y)$ funksiya qiymatlarini soha chegaralarida hisoblash:

1) AB tomondagi $u(x,y)$=45y(1–y) funksiyaning qiymatlari:
u(0,0)=0 ,u(0,0.2)=7.2 , u(0,0.4)=10.8,
u(0,0.6)=10.8 , u(0,0.8)=7.2 , u(0,1)=0.

2) AB tomondagi u (x,y)=25x funksiyaning qiymatlari:
u(0.2,1)=5 , u(0.4,1)=10 , u(0.6,1)=15,
u(0.8,1)=20 , u(1,1)=17.

3) CD tomondagi $u(x,y)$=25 funksiyaning qiymatlari:
u(1,0.8)=u(1,0.6)=u(1,04) AD tomondagi $u(x,y)$ =25sin $\frac{\pi x}{2}$
funksiyaning qiymatlari:
u(0.2,0)= 1,545, u(0.4,0)=5,878,
u(0.6,0)= 12,135, u(0.8,0)=19,021.

2. Yechim soha ichidagi nuqtalarda(7.5–rasm) izlanayotgan funksiya qiymatlarini topish uchun, Laplas tenglamasi uchun chekli ayirmalarni qo‘llashdan hosil bo‘lgan (7.7):

$$u_{ij} = u(x_i y_i) = \frac{1}{4}(u_{i-1,j} + u_{i+1,j} + u_{i,j-1} + u_{i,j+1})$$

formuladan quyidagicha foydalanamiz:

$$u_1 = \frac{1}{4}(7{,}2 + 1{,}545 + u_2 + u_5); \qquad u_2 = \frac{1}{4}(5{,}878 + u_1 + u_3 + u_6),$$

$$u_3 = \frac{1}{4}(12{,}135 + u_2 + u_4 + u_7); \qquad u_4 = \frac{1}{4}(19{,}021 + 25 + u_3 + u_8)$$

$$u_5 = \frac{1}{4}(10{,}8 + u_1 + u_6 + u_9); \qquad u_6 = \frac{1}{4}(u_2 + u_5 + u_7 + u_{10}),$$

$$u_7 = \frac{1}{4}(u_3 + u_6 + u_8 + u_{11}); \qquad u_8 = \frac{1}{4}(25 + u_4 + u_7 + u_{10}),$$

$$u_9 = \frac{1}{4}(10{,}8 + u_5 + u_{10} + u_{13}); \qquad u_{10} = \frac{1}{4}(u_6 + u_9 + u_{11} + u_{14}),$$

$$u_{11} = \frac{1}{4}(u_7 + u_{10} + u_{12} + u_{15}); \qquad u_{12} = \frac{1}{4}(25 + u_8 + u_{11} + u_{16}),$$

$$u_{13} = \frac{1}{4}(7{,}2 + 5 + u_9 + u_{16}); \qquad u_{14} = \frac{1}{4}(10 + u_{10} + u_{13} + u_{15}),$$

$$u_{15} = \frac{1}{4}(15 + u_{11} + u_{14} + u_{16}); \qquad u_{16} = \frac{1}{4}(20 + 25 + u_{12} + u_{15})$$

Bu hosil bo'lgan sistemani Zeydelning iterasiya usuli bilan yechib

$$u_i^{(0)},\ u_i^{(1)},\ u_i^{(2)},\dots,u_i^{(k)},\dots$$

ketma --ketlikni tuzamiz va yaqinlashishni 0,01 aniqlik bilan olamiz . Bu ketma –ketlik elementlarini quyidagi bog'lanishlardan topamiz:

$$u_1^{(k)} = \frac{1}{4}(8{,}745 + u_2^{(k-1)} + u_5^{(k-1)}); \qquad u_2^{(k)} = \frac{1}{4}(5{,}878 + u_1^{(k)} + u_3^{(k-1)} + u_6^{(k-1)})$$

$$u_3^{(k)} = \frac{1}{4}(12{,}135 + u_2^{(k)} + u_4^{(k-1)} + u_7^{(k-1)}); \qquad u_4^{(k)} = \frac{1}{4}(44{,}021 + u_3^{(k)} + u_8^{(k-1)})$$

$$u_5^{(k)} = \frac{1}{4}(10{,}8 + u_1^{(k)} + u_6^{(k)} + u_9^{(k-1)}); \qquad u_6^{(k)} = \frac{1}{4}(u_2^{(k)} + u_6^{(k)} + u_7^{(k-1)} + u_{10}^{(k-1)}),$$

$$u_7^{(k)} = \frac{1}{4}(u_3^{(k)} + u_6^{(k)} + u_8^{(k-1)} + u_{11}^{(k-1)}; \qquad u_8^{(k)} = \frac{1}{4}(25 + u_4^{(k)} + u_7^{(k)} + u_{12}^{(k-1)}),$$

$$u_9^{(k)} = \frac{1}{4}(10{,}8 + u_5^{(k)} + u_{10}^{(k-1)} + u_{13}^{(k-1)}); \qquad u_{10}^{(k)} = \frac{1}{4}(u_6^{(k)} + u_9^{(k)} + u_{11}^{(k-1)} + u_{14}^{(k-1)}),$$

$$u_{11}^{(k)} = \frac{1}{4}(u_7^{(k)} + u_{10}^{(k)} + u_{12}^{(k-1)} + u_{15}^{(k-1)}); \qquad u_{12}^{(k)} = \frac{1}{4}(25 + u_8^{(k)} + u_{11}^{(K)} + u_{16}^{(k-1)})$$

$$u_{13}^{(k)} = \frac{1}{4}(12{,}2 + u_9^{(k)} + u_{14}^{(k-1)}); \qquad u_{14}^{(k)} = \frac{1}{4}(10 + u_{10}^{(k)} + u_{13}^{(K)} + u_{15}^{(k-1)}),$$

$$u_{15}^{(k)} = \frac{1}{4}(15 + u_{11}^{(k)} + u_{14}^{(k)} + u_{16}^{(k-1)}); \qquad u_{16}^{(k)} = \frac{1}{4}(45 + u_{12}^{(k)} + u_{15}^{(k)}).$$

Yuqoridagi formulalar yordamida yechimni topish uchun boshlang‘ich $u_i^{(0)}$ qiymatlarni aniqlash kerak bo‘ladi. Shu boshlang‘ich taqribiy yechimni aniqlash uchun $u(x,y)$ funksiya soha gorizantallari bo‘yicha tekis taqsimlangan deb hisoblaymiz. Chegara nuqtalari (0;0.2) va (1;0.2) bo‘lgan gorizantal kesmani 5 ta bo‘lakka bulib, ularni boshlsng‘ich va oxirgi nuqtalardagi $u(x,y)$ funksiya qiymatlari bo‘yicha

$$K_1=(25-7{,}2)/5=3.56$$

qadam bilan uning ichki nuqtalardagi funksiya qiymatlari $u_1^{(0)}, u_2^{(0)}, u_3^{(0)}, u_4^{(0)}$ ni quyidagicha topamiz.



$$u_1^{(0)} = 7{,}2 + K_1 = 7{,}2 + 3{,}56 = 10{,}76$$

$$u_2^{(0)} = u_1^{(0)} + K_1 = 10{,}76 + 3{,}56 = 14{,}32$$

$$u_3^{(0)} = u_2^{(0)} + K_1 = 14{,}32 + 3{,}56 = 17{,}88$$

$$u_4^{(0)} = u_3^{(0)} + K_1 = 17{,}88 + 3{,}56 = 21{,}44$$

